


84.4
6-84



Aka-uka
Grimm ertaklari
**Mittivoylar
sovг'asi**

GRIMM
ERTAKLARI

1



Kitob shu yerda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

Ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--



Aka-uka
Grimm ertaklari
Mittivoylar
sovg'asi

Olmon xalq ertaklari
1- kitob
Ikkinchi nashri



TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2018

UO'K: 398.21(430)
KBK 84(4Nem)
G84

Olmon tilidan
Xurram Rahimov va Gulruh Rahimova tarjimasi

ISBN 978-9943-28-286-5

© X. Rahimov, G. Rahimova (tarj.), 2015, 2018
© «O'ZBEKİSTON» NMIU, 2015, 2018

So'zboshi

Muhtaram ertaksevar kitobxonlar!

Siz qo'lga olgan ushbu ertaklar olmon xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lib, ularni mashhur nemis ertakshunoslari aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar to'plab, XIX asrning boshlarida Germaniyada «*Kinder-und Hausmärchen*» nomi bilan nashr qildirishgan. Dastlabki nashrdayoq bu ertaklarning soni 200 dan ortiq bo'lgan.

Shundan so'ng mazkur ertaklarni dunyoning ko'pchilik xalqlari o'z tillariga tarjima qilgangan. O'zbek tiliga dastlab 1938-yilda rus tildan Farid Rasul tarjima qila boshlagan. Ilk o'zbekchallashtirilgan ertak nomi «*Botir tikuvchi*» edi. Bir yildan so'ng, Adham Rahmat aka-ukalarning «*Bremen muzikachiları*», «*Bir xurmacha shavla*», «*Quyon bilan tipratikan*», «*Bo'ri bilan yetti uloqcha*», «*Yetti qarg'a*» ertaklarini ona tilimizga o'girgan. 1940-yilda esa Vahob Ro'zimatovning «*Oltin g'oz*» ertagi tarjimasi lotin alifbosida chop etilgan. XX asrning 70–80-yillariga kelib, aka-uka Grimmlar ertaklariga qiziqish yanada kuchaydi. Ushbu

yillarda Surayyo To'raxonova rus tili orqali o'zbek tiliga o'girgan ertaklar to'plami nashrdan chiqdi.

1990-yilda aka-uka Grimmlar va Vilgelm Gauf qalamiga mansub 10 ta ertakdan iborat to'plam bevosita nemischa-o'zbekcha tarjimada nashr etildi, bu Sharif Ro'ziyev va Mavlon Javbo'riyevlar tarjimasidagi «Sirli kema» to'plamidir. Mustaqillikning dastlabki yilida Xurram Rahimov va Sharifa Salimovalar tarjimasida «Yetti oqqush» nomli olmon xalq ertaklari to'plami chop etildi.

Aka-uka Grimmlar ertaklarining «*Bremen muzikachilar*», «*Botir tikuvchi*», «*Bo'ron kam-pir*», «*Quyon bilan tipratikan*» kabi ayrimlari turli tarjimonlar tomonidan takroran tarjima qilingan. Masalan, «*Die Bremer Stadtmusikanten*» ertagi goh «*Bremen muzikachilar*», goh «*Bremen mashshoqlari*» deb nomlangan. Aslida bu ertak «*Bremenlik mashshoqlar*» tarzida tarjima qilin-ganida asliy monandroq bo'lur edi.

Qo'lingizdagi to'plamdan joy olgan ertaklar-ning ayrimlari biz 1991- va 2001-yillarda chop ettirgan to'plamda ham bor. Biroq ularning tar-jimasini biz uslubiy jihatdan qayta ko'rib chiq-dik va sezilarli darajada o'zgartirdik. Bu ertak-larni asli bilan yonma-yon qo'yib o'qisangiz, nemis tilini lug'atsiz o'rganish imkonni ham mavjud. Ya'ni bu to'plamdagagi ertaklar didaktik jihatdan ham oldingi tarjimalardan farq qiladi.

Ushbu ertaklar aka-uka Grimmlarning Germaniyada nashr etilgan «*Kinder-und Hausmarchen*», «*Gesammelt durch die Brüder Grimm*», «*Berlin und Weimar*», «*Aufbau-Verlag 1967*» nashridagi 210 ta ertagi orasidan saralab olin-gan. Mazkur ertaklarni miriqib o'qib, bir olam zavq olasiz degan umiddamiz.

Tarjimonlar



Olti oqqush

Qadim zamonda bir qirol o'rmonga ov qilgani chiqibdi. Ko'ziga ko'ringan bir hayvonning orqasidan shunday tez quvib ketibdiki, navkarlari unga yetolmay qolibdilar. Kech kirgach, qirol bir joyda to'xtab, atrofга qarasa, notanish joylarga kelib qolgan emish. Orqasiga qaytay desa, yo'lni topolmabdi. Shunday qilib, u kimsasiz o'rmonda adashib qolibdi. Nima qilishini bilmay turganida uzoqdan bir kampir u tomonga qarab kelayotganini ko'ribdi. Bu jodugar kampir ekan.

– Onajon, bu o'rmondan qanday qilib chiqib ketsam bo'ladi, yo'lni ko'rsatib yuborolmaysizmi? – deb so'rabdi qirol kampirdan.

– Ko'rsatib qo'yaman, hazrati oliylari, – deb javob qaytaribdi kampir. – Ammo bir shartim bor, uni bajarmasangiz, bir umr o'rmondan chiqolmay, ochlikdan o'lib ketasiz.

– Qanday shart ekan? – so'rabdi qirol.

– Mening bitta qizim bor, – debdi kampir. – U shunaqa go'zalki, bunaqa sohibjamolni yer yuzidan topolmaysiz. Sizga qayliq bo'lishga juda munosib. Agar unga uylanib, qizimni malika deb tanishtirsangiz, yo'lni ko'rsatganim bo'lsin.



Qirol qo'rqanidan bu shartga rozi bo'libdi. Kampir uni hujrasiga olib boribdi. U yerda kampirning qizi gulxan atrofida o'tirgan ekan. U qirol tashrifini go'yo oldindan bilgandek xushnudlik ila ularni kutib olibdi. Qirol qarasaki, qiz haqiqatan ham benihoya go'zal emish. Shunday bo'lsa-da, u qirolga yoqmabdi. Qirol qizni majburan otiga mindirib, kampir ko'rsatgan yo'l orqali chiqibdi-yu, saroyiga yetib boribdi va katta to'y-tomosha bilan unga uylanibdi.

Qirolning xotini vafot etgan bo'lib, undan yetti bola – olti o'g'il va bir qiz qolgan ekan. U farzandlarini jonidan ham ortiq ko'rарan.

O'gay ona bolalarimga yomonlik qilib yurmasin, deb qirol ularni o'rmon ichidagi alohida bir qasrga ko'chiribdi. Bu qasrni izlab topish ni-hoyatda mushkul ekan. Agar qo'lida bir donishmand ayol sovg'a qilgan sehrli kalava bo'limganida qirolning o'zi ham ushbu tanho qasrni topib borolmas ekan. Shoh kalavani yerga dumalatib yuborsa, u o'z-o'zidan yo'l ko'rsatib borarkan. Farzandlarini astoydil suygan qirolning saroyda tez-tez ko'rinmay qolishi malikani shubhaga sola boshlabdi. U qirolning bir o'zi o'rmonda nima qilishini bilish payiga tushibdi. Malika qirol xizmatkorlarini oltin bilan avrab, ulardan bu sirni bilib olibdi. Riyokor mulozimlar yo'l ko'rsatuvchi sehrli ipak kalava haqida bilganlarini

malikaga gapirib beribdilar. Shu ondan boshlab qiroq to shu sehrli kalavaning qayerga berkitilganini aniqlamaguncha, malikaning tinch yo'olibdi. Alqissa, ipak kalavani qo'lga kiritgan malika undan oppoq kichkina ko'yakchalar tikibdi va onasidan o'rgangan jodular yordamida sehrlab qo'yibdi.

Kunlarning birida qiroq ovga ketgach, malika ko'yakchalarni olib, o'rmonga ravona bo'libdi. Kalava unga yo'l ko'rsatibdi. Uzoqdan kimningdir kelayotganini ko'rgan bolalar: «Otamiz kelmoqda» deb o'ylab, xursandligidan malikaning oldiga chopib boribdilar. Shunda malika bolalarning har biri ustiga bittadan ko'yak tashlabdi. Kiyimlar bolalarning badaniga tegar-tegmas ular oqqushga aylanib, o'rmonga uchib ketibdilar. Malika o'gay bolalardan endi qutuldum deya mamnun ortiga qaytibdi.

Malika uyda qizaloq ham borligini payqamabdi. Keyingi kun bolalarini ko'rishga kelgan qiroq qizidan boshqa bolalaridan birontasini ham axtarib topolmabdi. «Akalaring qayerda?» – so'rabdi qiroq. «Oh, otajon, – debdi qizi, – ular yo'q, meni yolg'iz tashlab ketishdi», – deb darchadan ko'rgan voqealarni – akalarining qanday qilib oqqushga aylanib, o'rmonga uchib ketganini so'zlab beribdi, ko'rganlarining isboti uchun hovlida ulardan tushib qolgan patlarni ko'rsatibdi. Qiroq qayg'uga botibdi, biroq xotini

shu ishni qilganini xayoliga ham keltirmabdi, yolg'iz qizidan ham ayrilib qolishdan qo'rqib, uni saroyga olib ketmoqchi bo'libdi. Biroq qiz o'gay onaning zulmidan cho'chib, otasi bilan ketishni istamay, o'rmondagi qasrda yana bir kecha qolishga ruxsat olibdi. «Bu yerda ko'p qololmayman. Bu o'rmondan ketib, aka-ukalarimni izlayman», deya xayolidan o'tkazibdi qiz. Kech kirgach, u saroydan qochib, o'rmon ichkarisi tomon yo'l olibdi. Tun bo'yi yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, tunni kunga, tunni yana tunga ulabdi. Nihoyat, holdan toyib, kech kirganda o'rmon ichidagi bir tashlandiq kulbani ko'rib qolibdi. Unga yaqin borib, ichkariga kiribdi. Qarasa, bir xonada oltita kichkina karavotchalar turganmish. Ularning birontasiga yotishga yuragi betlamay, karavotlardan biring tagiga kirib, yerga cho'zilib olibdi. Butun tunni shu taxlit o'tkazmoqchi bo'libdi. Kech kirib, qosh qoraygan mahal u qushlarning qanot qoqqan tovushlarini eshitibdi.

Qarasa, derazadan oltita oqqush uchib kiribdi. Ular yerga qo'nib bir-birlarining patlariga puflashibdi. Shunda oqqushlar terisi xuddi ko'y-lakday yechilib yerga tushibdi. Keyin qushlar uning akalariga aylanibdi. Buni ko'rib turgan qiz o'zida yo'q xursand bo'lib ketib, karavot ostidan lip etib chiqib olibdi. Singillarini ko'rgan aka-ukalar ham sevinib ketibdilar. Lekin

ularning quvonchi uzoqqa cho‘zilmabdi va ular qizga debdilar: «Bu yerda qolishing mumkin emas, bu yer qaroqchilar tunaydigan joy, ular qaytib kelib, seni ko‘rsalar, o‘ldirib qo‘yishlari turgan gap».

«Meni qo‘riqlay olmaysizlarmi?» – so‘rabdi qiz. «Yo‘q, – deyishibdi ular bir ovozdan, – chunki biz har kuni sanoqli lahzalargagina oqqush libosimizni tashlab, odam qiyofasiga qayta olamiz, so‘ng yana oqqushga aylanamiz». Qiz yig‘lab so‘rabdi: «Nahot, sizlarni jodudan xalos qilib bo‘lmasa?». «Bu juda mushkul ish, shart juda og‘ir. Buning uchun sen olti yil gapirmasliging va kulmasliging, shu vaqt ichida bizlar uchun yulduzrang gullardan oltita ko‘ylak tikishing kerak. Og‘zingdan bittagina so‘z chiqib ketsa ham, barcha urinishlar barbod bo‘ladi». Suhbat shu joyiga kelganda aka-ukalarning ketadigan vaqtি bo‘lib qolibdi va ular oqqushga aylanib, derazadan uchib chiqib ketibdilar.

Mehribon singil o‘z jigarlarini jodudan xalos etishga astoydil bel bog‘labdi. Kerak bo‘lsa, ular uchun jonini ham berishga tayyor ekan. U shunday qaror ila kulbani tark etib, o‘rmon ichiga ravona bo‘libdi va bir daraxt tepasida tunni o‘tkazibdi. Tong otgach, yana yo‘lida davom etgan qizaloq yo‘l-yo‘lakay yulduzrang gullar terib, ko‘ylak tikishga tushibdi. U

bilan gaplashishga odam, kulish uchun esa xursandchilik yo‘q ekan. U har bir kun va tunini kiyim tikish uchun sarflabdi. Oradan vaqtlar o‘tib, shu o‘rmonga bir qirol ov qilish uchun tashrif buyuribdi. Bir payt qirol ovchilari qiz o‘tirgan daraxtning yoniga kelib qolib, unga ko‘zлari tushib so‘rabdilar: «Kimsan?» Qiz javob bermabdi. «Pastga – bizning oldimizga tush, senga yomonlik qilmaymiz», deyishibdi. Biroq qiz faqat bosh chayqabdi, xolos. So‘rayverib joniga tekkan ovchilarni tinchitish uchun nihoyat oltin marjonini pastga tashlabdi. Ular baribir xotirjam bo‘lishmabdi. Shunda qiz oltin tasmasini tashlabdi. Bu ham yordam bermagach, u turli xil oltin qistirgich va boshqa narsalarini birin-ketin tashlayveribdi.

Nihoyat, egnida birgina ko‘ylagi qolibdi. O‘jar ovchilar esa daraxtga chiqib, qizni dast ko‘targancha yerga tushiribdilar va qirol huzuriga eltibdilar. «Kimsan?» «Nega daraxt tepasida o‘tiribsan?» – so‘rabdi qirol. Biroq qiz javob bermabdi. Qirol o‘zi bilgan hamma tillarda qizga murojaat qilsa-da, qiz sukut saqlayveribdi. Qizning go‘zalligi qirolni maf-tun etib, sultanat hukmdori unga oshiq-u beqaror bo‘lib qolibdi. Qizning egniga o‘zining qirollik libosini yopib, otiga mindiribdi-da, saroya olib ketibdi. So‘ng u qizga atab qim-matbaho kiyimlar tiktiribdi. Zarrin liboslar

uning bir chiroyiga o'n chiroy qo'shibdi, biroq shu tuhfalardan keyin ham qiz churq etib og'iz ochmabdi. Qizning odobi qirolni butunlay rom etib qo'yibdi va u shunday debdi: «Men faqat shu sohibjamolga uylanaman». Oradan bir necha kun o'tgach, katta to'y-tomosha bilan qiroq qizga uylanibdi.

Biroq qirolning onasi badjahl ekan. U bu nikohdan norozi bo'libdi va shu bois ham yosh malikani yomonlashdan charchamabdi. «Kim biladi bu daydi qiz qayerdan kelib qolgan, deb tinmay to'ng'illar, «bu soqov malika bo'lishga noloyiq», deyishini qo'ymas ekan. Oradan bir yil o'tib, malika shiringina farzand ko'ribdi. Ammo u uxlab yotganda qaynonasi bolani yashirib, kelinining og'zini qonga bo'yab qo'yibdi. So'ng u qirolning huzuriga borib, «Xotining odamxo'r ekan, bolasini yeb qo'yibdi», debdi. Qirolning bu gapga ishongisi kelmabdi va malikani jazolashga yo'l qo'ymabdi. Malika bechora ham qimir etmay o'tirgancha ich-ichidan iztirob chekib, aka-ukalari uchun ko'ylakchalar tikaveribdi. Vaqt o'tib, malika yana homilador bo'lib, chiroyli o'g'ilcha tug'ibdi. Yovuz qaynona esa bu safar ham o'g'lini avvalgiday aldabdi. Biroq qiroq onasining tuhmatlariga ishonmay: «U bunday vahshiylikka qodir emas, u xudojo'y, benihoya odobli va insofli ayol. Gung bo'limgaganida

o'zini himoya qilib, begunohligini isbotlagan bo'lardi», debdi onasiga.

Ammo kampir endi dunyoga kelgan uchinchi nevarasini ham o'g'irlab, keliniga tuhmat qilgach, bechora malika esa begunohligini aytish uchun og'zini ocholmagach, qirolning unga chora ko'rishdan o'zga iloji qolmabdi. Uni o'tda kuydirishga hukm chiqarilibdi.

Hukm ijro etiladigan kun yaqinlashibdi. Bu malikaning akalari jodudan xalos etilishi kerak bo'lgan olti yilning eng oxirgi kuniga to'g'ri kelibdi. Shu kungacha boshiga ne kulfat tushmasin, qanday baxtsizlik onlarini kechirgan bo'lmasin, malika bir og'iz ham so'zlamabdi va kulmabdi. Nihoyat, u aka-ukalarini jodugar sehridan xalos etibdi. U oltita ko'ylakni ham tikib bo'libdi, faqat oxirgi oltinchi ko'ylakchanning chap yengi bitmagan ekan. Malikani qatl maydoniga olib borib, uyib qo'yilgan o'tinning ustiga chiqarishibdi. Malika esa oltita ko'ylakni ham o'zi bilan olib olgan ekan. Jallod o'tin tagiga endi olov yoqmoqchi bo'lganida havodan oltita oqqush uchib kelib, malikaning oldiga qo'nibdi. Jodudan xalos bo'lish payti kelgan oqqushlar ustiga malika ko'ylakchalarni tashlagan ekan, oqqushlar ko'z ochib yumguncha olti bahodirga aylanib qolibdi. Faqat kenja akasiga atalgan ko'ylakning chap yengi yo'q ekan va yelkasida oqqushning bir qanoti saqlanib qolibdi.

Ular bir-birlarini o‘pib, quchibdilar. Malika esa qatl maydonida turgan qironga: «Suyukli hojam, endi men gapira olaman va o‘zimning begunohligimni, tuhmatga qolganimni ayta olaman» deya so‘z boshlab, qaynonasining kirdikorlarini, uchala bolasini yashirib, o‘ziga tuhmat qilganini birma-bir hikoya qilib beribdi. Qirolning amri bilan uchala farzandini ham topib keltirishibdi. Yovuz qaynona esa jazoga tortilibdi. Shunday qilib qiro, malika, ularning uch nafar farzandi hamda oltita aka-uka uzoq vaqtlar tinch-totuv yashab, murod-maqsadlariga yetibdilar.

Oq ilon

Qadim o'tgan zamonda bir dono qirob bo'lgan ekan. Uning benihoya top-qirligi, mamlakatda yuz berayotgan hodisalarining ikir-chikirigacha xabardorligi hammaning og'zida doston ekan. O'ta maxfiy hodisalar ham unga qandaydir yo'l bilan ma'lum bo'lib qolaverarkan. Qirolning g'aroyib bir odati ham bor ekan. Har kuni tushlikdan so'ng, dasturxon atrofida bir o'zi qolar va unga sodiq xizmatkori usti yopiq laganda sirli taom keltirarkan. Hayratlanarlisi shundaki, laganda qanday taom borligini qiroldan bo'lak birorta odam, hatto sodiq xizmatkori ham bilmas ekan. Chunki qirob to yolg'iz o'zi qolmaguncha laganning ustini ochmas va taomdan totmas ekan. Ushbu maxfiy holat uzoq vaqtga qadar sirligicha qolibdi. Ammo bir kuni laganni qaytarib olib ketayotgan xizmatkorning niyati o'zgarib, qanday bo'lmasin bu sirning tagiga yetishga qaror qilibdi. U laganni o'z xonasiga olib borib, eshikni mahkam yopibdi, qo'rqa-pisa uni ochibdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, laganda pishirilgan oq ilon yotgan



emish. Xizmatkorning nafsi g'oliblik qilib, ilon go'shtidan bir to'g'ram og'ziga tashlabdi. Uni yutib ulgurmasdan ajib tovush quloqlariga chalina boshlabdi, derazani ochib, tashqariga qarasa, bir gala chumchuq chug'urlashib, dala-yu dashtlarda, bog'-u rog'larda, o'rmonlarda ko'rgan-kechirganlarini o'zaro o'rtoqlashayotgan emishlar. Sehrli ilon go'shti xizmatkorga hayvonlar tilini tushuna olishdek g'aroyib qudrat ato etgan ekan-da.

Xuddi shu kuni malikaning noyob, sevimli uzugi yo'qolib qolibdi. Shubha hamma yoqqa bemalol kirib-chiqaveradigan sodiq xizmatkorga tushibdi. Qirol uni huzuriga chorlab, dakki beribdi va tongga qadar uzukning o'g'risini aytmasa uni jazo kutayotganini aytib ogohlantiribdi. Bechora xizmatkor gunohsiz ekanligini qayta-qayta ta'kidlasa ham hech kim unga ishonmabdi. Bezovtalik va qo'rquvdan dunyo ko'ziga qorong'i bo'lgan xizmatkor nima qilishini bilmay hovliga chiqib, chora izlay boshlabdi va anhor bo'yiga borib o'tiribdi. Qarasa, bir gala o'rdaklar qirg'oqda to'planib, tumshuqlari bilan patlarini tozalab, qizg'in suhbat qurayotgan emishlar. Xizmatkor ularning suhbatiga quloq solsa, o'rdaklar bugun qanday nonushta qilganliklarini gaplashayotgan ekan. Ulardan biri shikoyat qilib, shunday dermish: «Men ertalab yemish deb o'ylab

malikaning deraza tagida turgan uzugini yutib yuboribman. Endi jig‘ildonimni xuddi tosh bosganday og‘ritib yuboryapti. Nima qilishga ham hayronman. Xizmatkor paysalga solib o‘tirmay uni «g‘ippa» bo‘g‘ib, oshxonaga olib kelibdi. Oshpazga qarab: «Shuni so‘ygin, semizlikdan yurolmay ham qolibdi-ya, jonivor», debdi. «Ha, – debdi oshpaz va uni qo‘lida chamarlab ko‘rgach – «voy, buning biqqilagini, zap qovurdoq bo‘ladi», – deb o‘sha zahoti so‘yib, patlarini tozalab, yuvishga kirishibdi. Jig‘ildonini yorib ko‘rishsa, malikaning uzugi turgan emish. Xizmatkor qirolning huzurida o‘zining begunohligini osongina isbotlabdi. Qirol uni taqdirlamoqchi bo‘lib, saroydagi eng yuqori lavozimni taklif qilibdi.

Xizmatkor barcha takliflarni rad qilib, o‘zi-ga biroz pul va bitta ot berishlarini so‘rabdi. Endi u saroya qolishni xohlamabdi, dunyonи ko‘rish istagini bildiribdi. Iltimosi qondirilgach, yo‘lga tushibdi. Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi, bir ko‘lmakka duch kelibdi. Qarasa, qamishlar orasiga uchta baliq tiqilib qolib, suvsizlikdan azob chekishayotgan emish. Ular qancha talpinmasinlar, ko‘l suviga yeta olmayotgan ekan. Baliqlar gung bo‘ladi, degan naqlga qaramay, xizmatkor ularning «bekorga o‘lib ketadigan bo‘ldik», degan nolaga to‘la so‘zlarini tushunib yetibdi va otidan tushib,

ularni suvgaga qo'yib yuboribdi. Baliqlar xur-sandlikdan o'ynoqlashib, suvdan boshlarini chiqarib, yigitga minnatdorligini bildirishibdi: «Bizni o'limdan qutqarganining uchun sendan behad minnatdormiz. Yaxshililingningi, albatta, yaxshilik bilan qaytaramiz», – deyishibdi. Xizmatkor esa o'z yo'lida davom etibdi. Birozdan so'ng u oyoq ostidan kelayotgan qandaydir nolani eshitib qolibdi. Nola qilayotgan chumolilar qiroli ekan: «Endi bizni oyog'osti qilmagan manavi otliq qoluvdi. U fuqarolarimga rahm-shafqat qilmay, ularni yer bilan yakson qildi. Yigit otining boshini so'qmoq yo'l tomonga buribdi. Shunda chumolilar qiroli: «Bu yaxshililingningi hech qachon unutmaymiz. Albatta, yaxshilik bilan qaytaramiz», – deb qolibdi. Yo'l yigitni o'rmonga boshlab boribdi. U yerda xizmatkor qarasaki, er-xotin qarg'a uyasidan polaponlari-ni chiqarib tashlab: «Yo'qolinglar, tekinxo'rlar, endi sizlarni biz to'ydirolmaymiz, kap-katta bo'lib qoldilaring. O'z kunlaringni o'zinglar ko'ringlar, o'zlarining ovqat topib yenglar!» deyishayotgan ekan. Bechora polaponlar esa yerga tushib, mitti qanotchalarini patirlatib, tumshuqlarini yerga urib zorillabdilar: «Sho'-rimiz qursin, biz bechora polaponlarni, ucha olmasak, qanday qilib o'zimiz ovqat topib yeymiz! Ochlikdan o'lishdan boshqa choramiz yo'q endi». Shunda rahmdil yigit otidan tushib,

uni so'yib, go'shtini kichkintoy polaponlarga yemish uchun qoldiribdi. Bechora qarg'achalar pildirab yetib kelib, ot go'shtiga o'zlarini uribdilar va qorinlari to'ygach, yigitning orqasidan: «Bu yaxshilingning unutmaymiz va bir kuni qaytaramiz», deb qolishibdi.

Xizmatkor yigit endi yo'lini piyoda davom ettiribdi. Yura-yura katta bir shaharga borib qolibdi. Bir payt shovqin-suronli shahar ko'chalaridan jarchi ot choptirib o'tib qolibdi. Xaloyiqqa ma'lum qilinishicha, shu yurt qirolinning qizi uning mushkul shartlarini bajargan odamga turmushga chiqadi, bajarmagan kim-saning esa boshi ketadi. Shu vaqtgacha ko'p yigitlar qizning shartini uddalolmay, juvonmarg bo'libdi. Malikani ko'rghan xizmatkor yigit uning betakror go'zalligiga mahliyo bo'lib qolib, barcha xavf-xatarni unutib, qirolning huzuriga boribdi va malika qo'ygan shartga rozi ekanligini aytibdi.

Shunda uni xizmatkorlar bir zumda dengiz bo'yiga eltishibdi-yu, to'lqinlar qa'riga bir oltin uzukni otib yuborishibdi. Qirol yigitga ana shu uzukni dengiz tubidan topib chiqishni buyurib, shunday debdi: «Mabodo suv yuziga uzuksiz qaytib chiqsang, o'zingni qaytadan suvgaga otishadiki, to'lqinlar bag'rida o'lib ketasan».

Yigitga shu yerga yig'ilganlarning rahmi kelsa-da, noiloj dengiz bo'yida yolg'iz o'zini

qoldirib orqaga qaytishibdi. Yigit qirg‘oqda, nima qilishini bilmay turganida, to‘satdan uzoqdan suzib kelayotgan uchta baliqqa ko‘zi tushibdi. Bu – o’sha o‘zi o‘limdan xalos etgan baliqlar ekan. Ularning o‘rtadagisi yigitning oldiga kelib, og‘zidagi chig‘anoqni uning oyog‘i ostiga tashlabdi. Yigit uni qumdan olib qarasa, ichida suvga uloqtirilgan tilla uzuk yotganmish. U behad quvonib ketibdi va o’sha zahoti uzukni qirolga eltib, va’da qilingan mukofotdan umid qilibdi. Ammo yigitning oddiy bir xizmatkor ekanligini eshitgan takabbur malika va’daga vafo qilishdan bosh tortib, yigitga yana boshqa shart qo‘yibdi. Malika o‘z bog‘iga o‘tib, o‘t-o‘lanlar orasiga o’n qop tariqni sochib yuboribdi. Keyin yigitga qarab: «Tong otguncha tariqni qoplarga aslidek joylaysan. Bir donasi ham yo‘qolmasin», debdi. Yigit: «Yer bilan bir bo‘lib yotgan tariqlarni qanday qilib ertalabgacha terib ulguraman», deb boshi qotibdi, hech bir chora topolmabdi. U g‘amga botib tongotarda jallod huzuriga eltishlarini kutib o‘tiraveribdi. Mana, tong ham yorisha boshlabdi, atrofga quyosh nurlari tusha boshlagan payt, yon-veriga qarasa, tariq o‘nta qopda qator qilib terib qo‘yilgan emish. Yerda esa bir dona ham tariq ko‘rinmabdi. Tunda chumolilar qiroli o‘zining ming-minglab to‘dasi bilan kelib, bir nafas tinim bilmay tariqni

qoplarga joylashtirishga ulgurishgan ekan. Ertalab bog'ga kirib kelgan malika hayratdan yoqa ushlabdi: yigit qo'yilgan ikkinchi shartni ham bajaribdi-da.

Hatto shundan ham ko'ngli to'l magan takabbur va mag'rur malika uchinchi shartni qo'yib, debdi: «Ikki shartni bajargan bo'lsa-da, toki menga hayot daraxtidan bitta olma uzib keltirmaguncha, u menga yor bo'lolmaydi». Hayot daraxti qayerdaligidan bexabar yigitning boshi qotibdi. Biroq «topmaguncha qo'yayman», deb qattiq ahd qilibdi, boshi og'gan tomonga ketaveribdi. Holdan toyguncha qidirsada, hech qayerda o'sha daraxtni uchratmabdi. Uch qirollik yerlaridan o'tib, kechga tomon bir o'rmonga kirib, bir daraxt ostiga o'tirib orom olmoqchi bo'libdi. Shu payt tepadan shoxlarning shitirlashi, qushlarning qanot qoqishi eshitilibdi: bir dona oltin olma to'ppa-to'g'ri uning qo'liga tushibdi. Tepaga qaramoqchi bo'lib turganida uchta qarg'a kelib, uning tizzasiga qo'nib, bir ovozdan yigitga shunday debdi: «Biz ochlikdan o'layotganimizda sen qutqarib qolgan o'sha uchta qarg'a bolalarimiz. Mana, endi ulg'aydik. Bir kuni sen oltin olma izlayotganiningni eshitib qoldik va yordamga shoshilib, dengiz uzra uchib borib, dunyoning narigi chekkasida o'sadigan hayot daraxtidan senga mana shu oltin olmani keltirdik». Yigit

o'zida yo'q xursand bo'lib, orqaga – qirol sarojiga yo'l olibdi, go'zal malikaga oltin olmani olib boribdi. Endi malika boshqa bahona to-polmay qolibdi. Ular hayot – tiriklik olmasini ikkiga bo'lib yeishibdi. Shunda malikaning qalbida yigitga nisbatan muhabbat tuyg'ulari to'lib-toshibdi. Ular turmush qurib, uzoq yillar baxt-u saodatga limmo-lim umr kechiribdilar.



Topishmoq

Qadim-qadim zamonlarda bir shahzoda bo'lgan ekan. U dunyo kezishni niyat qilib, o'zi bilan birga sodiq xizmatkorini ham olib, yo'lga chiqibdi. Kunlarning birida ular bir o'rmonga borib qolibdilar. Kech kirsa ham tunash uchun birorta boshpana topa olmab-dilar. Chora topolmay turgan bir sharoitda uzoq-dan bir qizning qorasi ko'rinishdi. Qiz kichkina kulba orqasida supur-sidir qilib yurgan ekan. Yigit yaqinroq kelib qarasa, qiz yosh va go'zal ekan. Yigit unga:

- Ey suluv qiz, men bilan xizmatkorimga kulbangdan joy topiladimi? – debdi.
- Mayli-yu, – debdi qiz g'amgin ohangda, – biroq menga qolsa, u yerga kirmaganlarining ma'-qul.
- Nega endi? – hayron bo'libdi shahzoda.
Qiz xo'rsinib debdi:
- O'gay onam – jodugar. Begonalarga yax-shilikni ravo ko'rmaydi.


Shunda shahzoda jodugarning kulbasiga kelib qolganini tushunibdi. Biroq qorong'i tushib qol-gan va qo'rqqani bois kulbada tunab qolishdan boshqa iloji yo'q ekan. U salom berib, ichkariga

qadam qo'yibdi. Kampir lang'illagan o'choq atrofida qo'lini isitib o'tirgan ekan, cho'g'dek qip-qizil ko'zlarini begonalarga tikibdi.

— Vaalaykum assalom, — debdi kampir xush kayfiyatda. — Bemalol kiraveringlar, tortinmanglar, o'tiringlar, dam olinglar. U cho'g'ga har zamon puflab cho'g'ni kovlab qo'yarkan.

O'choqdagi qozonchada nimadir qaynayotgan ekan. Kampir cho'g'ni yana takror kovlab kovlab qo'yarkan. Qizi ikkala mehmonni hech nima yemaslik va ichmaslikka undabdi, chunki kampir og'uli ichimlik tayyorlayotgan ekan-da. Mehmonlar tonggacha miriqib uxlashibdi. Yo'lga chiqayotgan ekanlar, kampir shahzodaga qarab: «Biroz kutib tur», debdi. «Xayrlashishdan oldin bir qultumdan musallas ichib ketinglar. Men hozir chiqaman», deb uyga kirib ketibdi. Shahzoda esa o'sha zahoti otini qamchilabdi. Xizmatkor esa otning ayilini to'g'irlab yurib, shu yerda biroz ushlanib qolibdi. Yalmog'iz ichimlikni ko'tarib chiqibdi.

— Mana buni xo'jangga berib qo'ygin, — debdi u. Biroq xizmatkor shishani ushlar-ushlamas u chil-chil sinib ketibdi va ichidagi suyuqlik otga sachrabdi. U shunday zaharli ekanki, bechora ot o'sha zahoti ag'darilib tushib, jon taslim qilibdi. Xizmatkor shahzodaning orqasidan yetib olib, bo'lgan voqeani gapirib beribdi. So'ngra otning egarini olish uchun orqasiga qaytsa, otning o'ligini allaqachon bir qarg'a



cho'qilayotgan emish. «Kim biladi, bugun tuzukroq yemish topamizmi, yo'qmi?» deb xizmatkor qarg'ani o'ldirib, o'zi bilan birga olib ketibdi. Ular kun bo'yi o'rmonda yurib, adashib qolishibdi. Quyosh botar chog'ida bir kulbaga duch kelib, ichkariga kirishibdi. Xizmatkor uy egasiga kechki ovqat uchun qo'lidagi qarg'ani beribdi. Bu safar ular qaroqchilar uyasiga kelib qolishgan ekan. Bir payt qorong'ilikdan 12 nafar kallakesar chiqib kelib, shahzoda va xizmatkorini o'ldirib, narsalarini o'marishni rejalash-tirishibdi. Ammo bundan oldin ovqatlanib olmoqchi bo'libdilar, chunki ular o'lgudek och ekan-da. Stol atrofiga uy egasi va uning jodugar xotini ham o'tirib, katta tovoqdagi qarg'a sho'rvani talashib-tortishib icha boshlashibdi. Ammo bir-ikki qoshiq ichar-ichmas, barchasi zaharlanib, tirrakday qotib qolibdilar. Chunki ot ni cho'qilayotganida undagi zahar qarg'a tanasiga o'tib bo'lgan ekan. Uy egasining qizigina tirik qolibdi. Chunki u halol, to'g'riso'z va vijdonli qiz ekan. U shahzodaga qolgan xonalarni ochib berib, qaroqchilar tunagan behisob boyliklarni ko'rsatibdi. Shahzoda bu boyliklarning hammasini qizning o'ziga qoldirib, yo'lida davom etibdi.

Ular yura-yura bir shaharga kelib qolishibdi. Qarashsaki, odamlar to'p-to'p bo'lib shu shaharda yashaydigan go'zal malikaning shartini muhokama qilib turishgan ekan. Malika:

— Agar kimda-kim menga javobi topilmaydi-gan topishmoq aytadigan bo'lsa, o'sha odamga turmushga chiqaman. Agar topishmoqni topsam, u odamning kallasini oldiraman, — deb butun xalqqa jar soldiribdi. Topishmoqlarga javob topish uchun uch kun muhlat so'ragan qiz shu qadar dono ekanki, natijada u tagiga yetmagan jumboqning o'zi qolmabdi. Shu shart e'lon qilinganidan buyon to'qqiz yigit yosh jonidan judo bo'libdi. Qizning jamolidan aqlini yo'qtayozgan shahzoda o'z hayotini garovga qo'yibdi va qizning oldiga borib, o'z topishmog'ini aytibdi.

— Bir kishining bir kishiga kuchi yetmabdi. Ammo u o'n ikki kishini yer tishlatibdi. Bu nima?

Malikaning boshi qotib qolibdi. U o'ylab aslo o'yiga, jumboqning esa siriga yetolmasmish. Hatto u topishmoqlar jamlangan kitoblarning barchasini axtarib chiqibdi. Ammo bunaqa topishmoq hech qayerda yo'q emish. Xullas, uning donoligi shu topishmoqqa kelganda oqsabdi.

Nima qilarini bilmay kanizagiga shahzoda-ning yotog'iga borib, sezdirmay ertalabgacha o'tirib chiqishini buyuribdi. Chunki malika shahzoda uyqusirab topishmoqning javobini ay-tib yuborishi mumkin deb o'ylabdi. Ammo aqli xizmatkor shahzodaning yotog'iga o'zi yotib olgan ekan. Kanizak kelgach, uni savalab, us-tidagi to'nini yechib olibdi-da, haydab yuboribdi. Ikkinchi kecha malika uddaburonroq kanizagini yana ayg'oqchilikka yuboribdi. Biroq xizmatkor

bu gal ham uni sezib qolib, ustidagi to‘nini yechib olib, o‘zini haydab yuboribdi.

Uchinchi kecha malikaning o‘zi erkakcha kiyinib kelibdi. Bu safar shahzoda o‘z o‘rnida yotgan ekan.

Malikaning ust kiyimi ajabtovur rangda emish. Shahzoda malikani ko‘rgach, o‘zini uxlaganga solib, ko‘zlarini yumib yotibdi. Malika sezdirmay, uning yoniga o‘tirib, so‘roqqa tuta boshlabdi. Chunki ko‘pchilik uyqusiragan paytida o‘ziga berilgan savollarga beixtiyor javob berar ekan. Biroq yigit malikaning so‘zlarini diqqat bilan eshitib yotibdi. Qiz undan: «Qani ayt-chi, bir kishining boshqa bir kishiga kuchi yetmabdi. Nima bu?» deb so‘rabdi. Yigit: «Bu zaharlangan otni cho‘qilab, o‘zi ham o‘lib qolgan qarg‘a», deb javob qaytaribdi. Malika: «Ammo u o‘n ikki kishini yer tishlatibdi. Bu nima?» debdi. Yigit: «Bu esa zaharlangan qarg‘a go‘shtini yeb, o‘lib qolgan o‘n ikki qaroqchi», debdi. Topishmoqning javoblarini javobini bilib olgan malika ura qochmoqchi bo‘lgan ekan, yigit uning to‘nidan mahkam ushlab olibdi. Qiz to‘nini tashlab qochishga majbur bo‘libdi. Ertasiga malika «Topishmoqlarning javoblarini topdim», deb e’lon qilibdi. O‘n ikki nafar qozini chaqirtirib, ularning guvohligida o‘z javoblarini aytibdi. Ammo yigit e’tiroz bildiribdi:

— Malika tunda yotog‘imga kelib, javobni o‘zimdan so‘rab oldi. Bo‘lmasa topolmagan bo-

lardi. Qozilarning bari isbot talab qilishibdi. Shunda u uch kechada yechib olingan uchta to'nni ko'rsatibdi.

Qozilar malikaning to'nini bir ko'rgandayoq tanibdilar va bir ovozdan: «Shu to'nni zarrin va kumush iplar bilan bezatinglar, bu nikoh libosingiz bo'lsin», debdilar.

Malika shahzodaning uddaburonligiga qoyil qolibdi va unga turmushga chiqishga rozi bo'libdi.



Shirin bo'tqa

Qadim o'tgan zamonda kambag'al va mehribon bir qiz bo'lган ekan. Uning onasidan bo'lak hech kimi yo'q ekan. Kunlarning birida ularning yeguligi tugab qolibdi. Shunda qizcha biror meva-cheva topib kelish umidida o'rmonga boribdi va u yerda bir kampirga yo'liqibdi. Kampir qizning tashvishidan xabardor ekan, unga bir dekcha sovg'a qilibdi. Qiz dekchaga: «Pishir, dekcha!» desa, mazali bo'tqa pishar ekan, «To'xta, dekcha!» deyilsa, u bo'tqa pishirishdan to'xtarkan. Sehrli dekchani ko'tarib, qiz uyiga – onasining oldiga qaytibdi. Shu kundan boshlab ular kambag'allik va ochlikdan qutulib, qorni to'yib ovqat yeydigan bo'lishibdi. Dasturxonlarida istagan paytda shirin taom hozir bo'larkan.

Bir kuni qiz uyda yo'q paytida onasi: «Pishir, dekcha!» degan ekan, dekchada bo'tqa pishib, kampir undan to'yib yebdi. Ammo boshqa pishirmasa ham bo'ladi deb dekcha yoniga borgan bechora kampirning: «To'xta, dekcha!» degan gap yodidan chiqib ketibdi. Dekcha bo'tqa pishirishdan to'xtamabdi va ko'p o'tmay bo'tqa dekchadan toshib yerga tushibdi. Bir payt bo't-

qa oshxonani to'ldiribdi va butun uyni qoplab eshikdan chiqibdi, keyin qo'shni uylarni ham to'ldirib yuboribdi. Chunki u butun qishloqni to'ydirmoqchi bo'libdi-da. Dekchani qanday qilib to'xtatishni esa hech kim bilmasmish. Butun qishloqda bo'tqa borib yetmagan bittagina uy qolibdi. Shu payt uyiga qaytib kelgan qiz bir og'izgina: «To'xta, dekcha!» degan ekan, u bir zumda bo'tqa pishirishdan to'xtabdi. Ana shundan beri qishloqdan kim shaharga bormoqchi bo'lsa, keta-ketguncha shirin bo'tqadan yeb yo'lga chiqadigan bo'libdi.



Bobo va nevara

Qadim o'tgan zamonda bir munkillagan qari chol yashagan ekan. Uning ko'zlaridan nur, tizzasidan esa mador ketibdi. Qulog'i ham yaxshi eshitmaydigan bo'lib qolibdi. Ovqatlanayotganda qo'llari qaltirab, ichayotgan sho'rvasi dasturxonga to'kilar ekan. Yeyotgan ovqatining yarmi og'zidan tushib ketarkan. Bu holatdan uning o'g'li va kelini jirkanar ekan. Shu bois qari chol pechkaning orqasidagi burchakda o'tiradigan bo'libdi. Ular cholga ovqatni sopol tovoqda berar ekan. Ustiga ustak bu ovqat to'yimli ham emas. Chol dasturxonga mo'ltirab, ma'yus tikilar, ko'zlar esa namlanar ekan.

Shunday kunlarning birida cholning qo'li qaltirab, sopol tovoqni tushirib yuboribdi. Tovoq sinibdi. Kelin janjal ko'tara boshlabdi, chol esa «uf» tortib qo'yibdi. Keyin ular boboga yog'och tovoq olib kelishibdi. Chol jimgina o'sha tovoqda ovqatlanadigan bo'libdi. Kattalar gaplashib o'tirganda to'rt yashar kichkintoy bolakay turli xil taxtachalar yig'a boshlabdi.

— Taxtachalarni nima qilasan, — so'rabdi undan dadasi.

– Bulardan tovoq yasayman, – javob qaytaribdi o'g'il – katta bo'lsam, siz bilan oyim men yasagan tovoqda ovqat yeysizlar.

Shunda er-xotin bir-birlariga qarab, yig'lab yuboribdilar. Shu ondan e'tiboran ular keksa otalariga dasturxon to'ridan joy ko'rsatib, birga ovqatlanadigan bo'lishibdi. Chol ba'zan ovqatini to'kib yuborsa ham ular hech nima deb nolimaydigan bo'lishibdi.

Asalarilar qirolicheasi

Otgan zamonlarning birida qirolning sarguzashttalab ikki katta o'g'li bo'lgan ekan. Kunlarning birida ular boshlari og'gan tomonga ketishibdi va darveshona hayot kechirib, uylariga qaytib kelishmabdi. Shunda Ovsar ismli kenja uka ularni izlashga tushibdi va izlay-izlay axiri topibdi. Akalari uning dunyo kezmoqchiligini eshitib, masxara qilishibdi. Undan aqlliroy bo'lishsa ham hamon baxtlarini topa olmaganlarini aytishibdi. Shundan keyin uchovlon yo'lida ketayotib, chumoli to'dasiga duch kelishibdi. Ikki aka ham chumoli galasini to'zitib, ularning tuxumlarini ko'tarib, tumtaraqay qochishlarini tomosha qilishmoqchi bo'lishibdi. Ammo Ovsar debdi:

– Jonivorlarga tegmanglar, ularni nobud qilishlaringizga aslo yo'l qo'ymayman.

Uchovlon yana o'z yo'lida davom etishibdi va ko'l bo'yiga borib qolishibdi. Ko'lda o'rdaklar suzib yurishgan ekan. Akalari ulardan bir-



ikkitasini ushlab, qovurib yemoqchi bo'lishibdi, ammo kenjatoy bu holatga chidolmay:

– Jonivorlarni o'z holiga qo'yinglar, ularni bo'g'izlashingizga aslo yo'l qo'ymayman, – debdi.

Nihoyat, ular bir daraxt kovagidagi asalari uyasi oldiga kelishibdi. Unda asal shu qadar ko'p ekanki, hatto daraxt tanasidan ham oqib yotgan ekan. Ikki aka daraxt tagida olov yoqib, tutun bilan arilarni o'ldirib asalni olib ketmoqchi bo'lishibdi. Ammo Ovsar ularni yana bu ishdan qaytarib:

– Jonivorlarni tinch qo'yinglar, ularni yoqib yuborishingizga yo'l qo'ymayman! – debdi.

Nihoyat, uch aka-uka bir qasrga borib qolbdilar. Undagi otxonada toshga aylanib qolgan otlardan bo'lak biror tirik jon ko'rinnmas emish. Aka-ukalar qasrning barcha xonalariga kirib chiqishibdi, biroq hech kimga duch kelishmabdi. Eng oxirgi xonaning eshigi oldiga borishibdi, unga uchta qulf osilgan ekan. Eshikning tirqishidan qarashsa, stol atrofida bir mo'ysafid odamcha o'tirgan emish. Yigitlar uni bir marta, ikki marta chaqirganida ham u eshitmabdi. Nihoyat, uchinchi bor chaqirishganda, o'rnidan turib kelib, qulflarni ochibdi. Biroq u bir og'iz ham so'z aytmay yigitlarni shohona bezatilgan dasturxonga boshlabdi. Uch og'a-ini yeb-ichib bo'lgach, mo'ysafid ularning har birini o'z xonasiga olib kiribdi.

Ertasi kuni ertalab mo'ysafid odamcha to'n-g'ich akaning oldiga kelib, uni imo-ishora bilan bir toshtaxtaning yoniga olib boribdi. Unga qasrni jodudan xalos etishning uch sharti yozilgan ekan. Birinchi vazifa bo'yicha o'rmondagi zax joylarda o'sadigan mox o'ti ostidan malikaning ming dona dur munchog'ini topib kelish kerak ekan. Agar quyosh botguncha durlarning, hatto bittaginasi topilmay qolsa ham ularni izlagan odam toshga aylanib qolarkan. To'ng'ich shahzoda o'rmonga borib, kun bo'yi zo'rg'a yuz dona durni topishga ulguribdi va toshtaxtaga yozilganiday, toshga aylanib qolibdi. Ikkinchchi kuni o'rtancha shahzoda shartni bajarishga bel bog'labdi. Ammo uning ham omadi chopmabdi: kech kirguncha topgan durlarining soni zo'rg'a ikki yuzga yetibdi va u ham toshga aylanib qolibdi.

Nihoyat, navbat Ovsarga yetib kelibdi. U bir-biriga o'ralib, chalkashib ketgan o'tlar ostidan dur izlab, charchab ketibdi. Ishi hech unmabdi. Shunda bir toshning ustiga o'tirib olib, yig'lashga tushibdi. Bir payt uning oldiga o'zi o'limdan asrab qolgan chumolilar qiroli besh ming chumolini ergashtirib kelibdi va ko'p o'tmay mitti jonivorlar durlarning barini bir joyga to'plab berishibdi.

Ikkinchchi shartga binoan malikaning dengiz tubiga tushib ketgan xobgohi kalitini olib chiqish kerak ekan. Ovsar dengiz bo'yiga borsa, o'zi

bir paytlar qutqargan o'rdaklar uning oldiga suzib kelib, dengiz tubidagi kalitni olib kelib berishibdi.

Uchinchi shart esa eng mushkuli ekan: unga ko'ra Ovsar qirolning uxlab yotgan qizlaridan eng yoshi va eng go'zalini aniqlashi lozim ekan. Opa-singillar bir-birlariga nihoyatda o'xshashar emishki, go'yo, ularni bir-biridan farqlovchi hech bir jihat yo'qday ekan. Shart bajariladigan kundagi farq shundan iborat ekanki, aynan shu kuni ular uyqudan oldin har xil shirinliklar yeyishgan ekan: to'ng'ich qiz bir dona chaqmoq qand yebdi, o'rtanchasi ozgina sharbat ichibdi, kenja qiz esa bir qoshiq asal yalabdi.

Shu payt bir vaqtlar Ovsar olovdan asrab qolgan asalarilar qirolichasi uchib kelib, opa-singillarning lablariga bir-bir qo'nib, oxiri kenja qizning labida qimirlamay turaveribdi. Shahzoda asal yegan qiz shu ekanligini bir zumda ajratib olibdi. Shunda sehrlangan malikalar jodudan xalos bo'libdilar, uchala qiz ham sehrli uyqudan uyg'onibdi. Ular bilan birga toshga aylangan barcha jonivor-u mavjudotlar yana asl holatiga qaytibdi. Ovsarning toshga aylangan ikki akasi ham odamga aylanib qolibdilar.

Ovsar esa eng kenja malikaga uylanib, qaynotasining vafotidan so'ng shu yurtga qiro bo'lib, murod-maqsadiga yetibdi, akalari esa qolgan ikki opa-singilga uylanibdilar.

Vafodor it

Qadim zamonlarda bir dehqonning Oqtosh laqabli iti bor ekan. Kun kelib it qarib, tishlari tushib ketibdi va tishlagan narsasini uzib olishga ham madori yetmay qolibdi. Dehqon xotiniga: «Bu qarib qolgan Oqtoshni ertaga otib tashlayman. Endi bizga uning foydasi tegmaydi», debdi. Sadoqatli itiga rahmi kelgan ayol eriga yuzlanib: «Shuncha yillardan beri bizga halol xizmat qildi, hovli-joyimizni qo'riqladi, shuning uchun uni o'ldirmaylik», deya yolvoribdi. «Bo'ladigan gapni gapir, – debdi eri. – Ortiqcha tekinxo'r kimga kerak? Og'zida tishi bo'lmasa, birorta ham o'g'ri undan qo'rmasa, endi bu ko'ppakning keragi yo'q, vaqtida jo'nab, kunini ko'rsin. Xizmatimizni qilgan bo'lsa, buning evaziga yaxshi ovqat ham yegan».

Bechora it sal narida oftob nurida cho'zilib yotgan joyida bu gaplarni eshitibdi va ertaga kuni bitajagini o'ylab, g'amga botibdi. U bo'ri bilan qadrdon do'st ekan. Kechasi it o'rmonga – bo'rining oldiga borib, o'z taqdiridan nolibdi. «Qulq sol, og'ayni, – debdi unga bo'ri. – Bardam bo'l, boshingga musibat tushganda senga yordam

beraman. Men bir narsani o'ylab qo'ydim. Ertaga tong saharda xo'jayining xotini bilan birga pichan o'rishga ketadi. Uyda hech kim yo'qligi bois ular bolasini ham birga olib ketadi. Odatda, ish paytida ular bolasini butalar ortidagi soya joyda qoldirishadi. Sen bolaning yonida qo'riqlagan bo'lib yotib ol. Men o'rmondan chiqib kelib, bolani olib qochaman, sen esa mening orqamdan yugurib, uni qutqarib qolish uchun shoshil. Men shunda bolani tashlab qochaman, sen uni ota-onasiga qaytarib olib borasan. Ular bo'lsa, shu it bolamizni qutqarib qoldi, deb sendan minnatdor bo'lishadi. Bu voqeadan keyin ular senga parvona bo'lishadi, yo'qchilik nimaligini bilmay yashaysan.

Bu taklif itga ma'qul bo'libdi. Ushbu reja oldindan o'ylanganiday amalgalashuvda oshirilibdi. Bolasini bo'ri olib qochib ketayotganini ko'rgan ota dod solibdi. Oqtosh uni qaytarib olib kelgach, xo'jayini xursand bo'lib, itni silab-siypalab, debdi: «Endi seni hech kim ranjita olmaydi. Umring oxirigacha beminnat yeb-ichasan». Xotiniga esa: «Tez uyga borgin-da, Oqtoshga atala pishirib keltir, uning tishlari yo'q, qiynalib o'tirma-sin. Mening yostig'imni ham keltirib ber, yum-shoq o'rinda yotsin», debdi. Shu kundan e'tiboran, Oqtosh o'zi o'ylaganidan ham yaxshiroq yashay boshlabdi.

Ko'p o'tmay itning oldiga bo'ri kelib, rejasining silliq amalgalashuvda xursand bo'libdi.

«Ammo og‘aynijon, – debdi u itga, – men payti kelganda semiz qo‘ylaringdan birini obqochsam, ko‘rmaganga olasan-da, xo‘pmi? Axir kun ko‘rish ham qiyinlashib ketdi».

«Bunga umid qilma, – javob qilibdi it, – men xo‘jayinimga sodiq qolaman, bunaqa nohaqlikka rozi bo‘lomayman».

Bo‘ri esa it hazillashdi, deb o‘ylab kechasi poylab kelib, bir qo‘yni o‘marib ketmoqchi bo‘libdi. Biroq vafodor Oqtosh egasini bo‘rining yovuz niyatidan ogoh qilgan ekan, dehqon poylab yotib, bo‘rini obdan kaltaklab, qovurg‘alarini sindirib jo‘natibdi. Bo‘ri zo‘rg‘a qochib qutulib, itga hayqiribdi:

– Hali shoshmay tur, yomon do‘s ekansan, bu qilmishingga pushaymon bo‘lasan!

Ertasi kuni ertalab bo‘ri itning oldiga to‘ng‘izni yuborib, uni chaqirib kelishni buyuribdi va it bilan hisob-kitob qilib olmoqchi bo‘libdi. Oqtosh uch oyoqli cho‘loq mushukdan bo‘lak hech kimni birga borishga ko‘ndirolmabdi. Bechora mushuk oqsoqlanib, yo‘l-yo‘lakay dumini ko‘tarib olgancha g‘ingshib ketibdi. Bo‘ri va uning sherigi allaqachon aytilgan joyga kelib turishgan ekan. Biroq ular raqiblari yaqinlashib qolganda hayron qolishibdi. Mushuk dumini ko‘tarib olganini ular «it qilich ko‘tarib kelyapti-yov», deb tushunishibdi. Sho‘rlik mushukning oqsoqlanib, pastbaland bo‘lib kelishini ular «u yerdan bizga otgani tosh terib kelayapti», deb o‘ylab, qo‘rqib ketishib-

di. Yovvoyi cho'chqa butalar orasiga kirib ketibdi, bo'ri esa bir daraxtga sakrab chiqib olibdi. It bilan mushuk kelishsa, hech kim ko'rinnasmish, ular hayron qolishibdi. Ammo to'ng'iz butalar orasiga obdan yashirinib olishga ulgurmabdi, uning uzun quloqlari dikkayib ko'riniq qolibdi. Mushuk olazarak bo'lib, u yoq-bu yoqqa qarab turgan chog'da, cho'chqaning quloqlari qimirlab qolibdi. Bu sichqon ekan, deb o'ylagan mushuk bir sapchib, cho'chqaning qulog'ini tishlab olibdi. Shunda cho'chqa voy-voylagancha o'rnidan turib qochib ketayotib: «Aybdor ana, daraxt tepasida turibdi», deb baqiribdi.

It va mushuk tepaga qarab, bo'rini ko'rib qolishibdi. U esa o'z qilmishidan uyalib, it bilan yarashib olibdi.



Kuylovochi suyak

Qadim-qadim zamonlarda, bir o'lkaga to'ng'iz bostirib kirib, dehqonlarning ekinlarini payhon qilib, mol-hollarini o'ldirib, o'zining xanjardek o'tkir tishlari bilan odamlarning qornini ham yorib keta boshlabdi.

Qirol, kimki elni bu ofatdan qutqarsa, unga katta mukofot berishini e'lon qilibdi. Biroq hech kim yirtqich maxluq yashaydigan o'rmon yaqiniga borolmabdi. Shunda qirol jar soldirib, kimki to'ng'izni ushlasa yoki o'ldirsa, o'sha kimsaga yolg'iz qizini xotinlikka berajagini bildiribdi.

Shu mamlakatda yashovchi bir kambag‘al odamning o'g'illari – aka-ukalar bor ekan. Ular qirol huzuriga borib, shu ishga bel bog‘laganliklarini aytishibdi.

Aka-ukalarning kattasi ayyor va aqlli bo'lib, u shon-shuhrat orttirish uchun bu ishga qo'l uribdi. Kichkinasi esa sodda va anqov ekan, u rahmdilligidan bu qaltis ishga kirishishga bel bog‘labdi.

Qirol ularga debdi:

– U maxluqni tezda topish uchun o'rmonning ikki chekkasidan bir-birlaringga qarab yuringlar.

Shunda katta o'g'il g'arb tomondan, ukasi esa sharq tomondan o'rmonga kirib ketishibdi. Uka biroz yurgan ekan, oldidan mitti odamcha chiqib qolibdi. Uning qo'lida bir qora nayza bor ekan. «Mana shu nayzani senga beraman, chunki sen beg'ubor va begunohsan. Bu bilan yirtqich to'ng'izga qarshi dadil kurashishing mumkin, maxluq senga hech qanday shikast yetkaza olmaydi», – debdi unga odamcha. U mittivoya rahmat aytib, nayzani yelkasiga qo'yib, qo'rmasdan ketaveribdi. Ko'p yurmay butun yurtni dahshatga solgan yirtqichga ro'para bo'libdi. Kimsasiz o'rmonda yolg'iz kelayotgan odam bolasini ko'rgan to'ng'iz pishqirib yigit tomonga yuguribdi, biroq yigit qo'rqlay unga nayza o'qtalibdi. Quyunday yelib kelayotgan vajohatli yirtqich o'zini nayzaga urgan ekan, u to'g'ri to'ng'izning yuragiga sanchilib, uni ikkiga bo'lib yuboribdi. Yigit uni ortmoqlab, saroy tomon yo'l olibdi.

Yigit uzoq yo'l yurib, o'rmonning narigi tomonidan chiqibdi. Qarasa, shu yaqin atrofda bir uy bor ekan, uyning ichida bir to'da odam o'yin-kulgi qilayotgan mish. Akasi ham shu uyga kirib, «to'ng'iz qochib ketarmidi, avval bir qultum may ichib, dadil bo'lib olay», deb shirakayf odamlarga qo'shilib ketgan ekan. O'rmon dan o'lja bilan qaytayotgan ukasini ko'rib, dilidagi hasad unga tinchlik bermabdi. U ukasini chaqi-

rib: «Bu yoqqa kirsang-chi, ukajon, biroz dam ol, may ichib, kuch to‘pla!» deb uni maishatga chorlabdi. Akasidan hech bir yomonlik kutmagan uka uyga kirib, yo‘lida uchragan mitti odamcha haqida gapirib, u bergen nayza bilan to‘ng‘izni o‘ldirganini aytibdi. Akasi uni kechgacha ushlab qolibdi, keyin birga yo‘lga tu shishibdi. Qorong‘i tunda ular katta ariq ustidagi ko‘prikka kelganlarida aka o‘z ukasini oldinga o‘tqazib, suvning o‘rtasiga borganda esa uni orqadan bir urib o‘ldirib, ko‘prik tagiga ko‘mib qo‘yibdi. To‘ng‘izni esa qirolga eltibdi. Maxluqni bir o‘zi o‘ldirganini ham ta‘kidlab qo‘yibdi. Yurt qiroli esa qizini unga to‘y qilib uzatibdi. Ukasi qaytib kelavermaganidan tashvishlanayotganlarni yupatib: «To‘ng‘iz uni majaqlab ketgan bo‘lsa, ajab emas», debdi. Uning bu gapiga hamma ishonibdi.

Ammo hech bir ish beiz ketmaganiday bu mudhish yovuzlik ham kun kelib ochilib qolibdi. Oradan yillar o‘tibdi, kunlardan bir kun bir podachi yigit o‘z qo‘y-qo‘zilarini haligi ko‘prik atrofida boqib yurgan kez ko‘priordan suruvni olib o‘tayotib, tepadan pastga qaragan ekan, qurib qolgan ariqdagagi qum ustida qorday oqarib yotgan oppoq suyakni ko‘rib qolibdi. Yigit undan ixchamgina puflagich nay yasabdi. Uni chalib ko‘rsa, g‘aroyib suyak podachini hayron qoldirib, o‘zidan o‘zi:

*Oh, sen jonio chō'ponim,
Suyagimni chalyapsan.
Akam meni o'ldirgan,
Umrim so'ldirgan edi.
Ko'prik osti qumiga
Pinhona ko'mgan edi,
To'ng'izni olmoq uchun
Qirolning go'zal qiziga
Uylanib olmoq uchun*

«Qanday ajoyib naycha!» – debdi cho'pon. «Qanday ajoyib nay bu, o'zidan o'zi qo'shiq aytadi, men buni qirol hazratlariga olib borishim kerak». Shunday deb u qirol huzuriga yo'l olibdi. Shunda nay yana o'sha g'amgin qo'shig'ini kuylab yuboribdi. Gap nimadaligini tushunib yetgan qirol ko'prik tagini kovlattirgan ekan, u yerdan o'ldirilgan yigitning butun gavda suyaklari topilibdi. Yovuz akaning qilgan jinoyatini bo'yniga olishdan o'zga iloji qolmabdi va qirol odamlari uni bir qopga solib, xaltaning og'zini tikib, tiriklayin suvga cho'ktirishibdi. O'ldirilgan ukaning suyaklari esa qabristonga dafn qilinibdi.

O'n ikki oochi

Qadim zamonda bir shahzoda bo'lib, u o'zga yurtning husnda tengsiz mali-kasini jonidan ham ortiq sevar ekan. Kunlardan bir kun ular suhbatlashib o'tirishgan ekan, chopar kelib, otasi og'ir ahvolda yotgani, o'limi oldidan shahzoda bilan vidolashish niyatida ekanini xabar qilibdi. Shunda shahzoda sevimli mahbubasiga qarab:

– Qanchalik og'ir bo'lmasin, sen bilan xayr-lashishga majburman. Sevgimiz ramzi sifatida mana bu uzukni ol. Taxtga o'tirgach, qaytib kelib, seni olib ketaman, – debdi.

Shahzoda shu so'zlarni aytib, otini yeldek uchirib ketibdi. Yetib kelib, ne ko'z bilan ko'r-sinki, otasi jon taslim qilay deb turganmish. Ota so'nggi kuchini to'plab o'g'liga debdi:

– Sevimli farzandim, o'limim oldidan sen bilan diydorlashib qolay dedim. Mening xohishim bilan uylanishga so'z ber.

Qirol o'g'liga qo'shni mamlakatdagi mali-kaning ismini aytibdi. Otasining ahvolidan qattiq iztirobga tushgan yigit hech narsani o'ylamay, rozi bo'libdi:

– Xavotir olmang, otajon, hammasi siz ayt-gandek bo‘ladi.

Ko‘ngli taskin topgan qirol beozor jon taslim qilibdi.

Otasining ma’rakalarini o’tkazib, yigit uning vasiyatini bajarmoq maqsadida qo’shni qirolning qizini so‘ratib, sovchilar yuboribdi. Malikaning ota-onasi rozilik bildirgach, to‘y kuni ham belgilanibdi. Ammo shahzodaning go‘zal mahbubasi bu noxush xabarni eshitib, yorining be-vafoligidan qattiq iztirobga tushibdi.

Shunda otasi:

– Jonim qizim, nega buncha g‘amginsan? Aytgan narsangni muhayyo qilaman, qo‘y, ko‘p qayg‘urma, – debdi.

– Otajon, qaddi-qomati o‘zimga monand, ro‘y-ruxsori o‘xshaydigan o’n bir kanizak kerak... – debdi malika.

– Orzung amalgaloshgay, qizalog‘im, – deya butun mamlakatga chopar yuboribdi qirol. Qoshko‘zi, bo‘y-basti, hatto aytar so‘zi ham qizinikiday bo‘lgan o’n bir parisifat qiz topib keltirilibdi. Shunda malika bir xilda o’n ikki nafar ovchi libosi tikishni amr etibdi. O’n bir qizga qo‘silib, u ham shikor kiyimini kiyibdi, keyin otasidan oq fotiha olib, qaylig‘ining yurti tomon ot solibdi. Yosh qirol saroyiga yetib borgach, qiz o‘zining qalbi egasini topibdi, lekin yigit uni tanimabdi. Shunda ovchi qiyofasidagi ma’shuqa: «Hukmdorga ovchi kerakmi?» – deb so‘rabdi.



Malikani ovozidan ham payqamagan hukmdor bari bir xilda kiyangan bu xushbichim ovchilarga suqlanib qarab, ularni jon deb saroy xizmatiga qabul qilibdi.

Ammo qirolding bir ajoyib sheri bo'lib, unga barcha sirli va maxfiy hodisalar ayon bo'laverar ekan. Bir kuni sher qiroldan so'rabdi:

– Siz saroyimda o'n ikkita ovchim bor deb yuribsiz, shundaymi?

– Ha, albatta, ular o'n ikki nafar ovchi.

Shunda sher:

– Yo'q, qirolim, adashyapsiz, ular ovchi emas, balki o'n ikki nafar hur qizlar.

Qirolding bu so'zlarni eshitib jahli chiqibdi:

– Bunaqa bo'lishi mumkin emas, buni qanday isbot qilasan?

– O, hazrati oliylari, bundan oson ish bormi? Yo'lakka no'xat sochtiring, qanday hodisaning guvohi bo'larkansiz, ko'ramiz. Erkak kishi no'xat ustidan yursa, qadami shaxdam va ishonchli bo'ladi, uyoq-bu yoqqa chayqalmaydi, bitta ham no'xat joyidan qo'zg'almaydi. Qizlar esa bu no'xatning ustida dorda yurgan dorbozday chayqalib qadam tashlashadi, yiqilib tushgudek qo'rqib, zo'rg'a oyoq bosishadi, shu boisdan no'xatlar har tomonga sochilib ketadi.

Qirolga bu maslahat ma'qul tushib, yo'lakka no'xat sochishni buyuribdi. Saroyda bir xizmatkor bo'lib, u ovchilarni juda yaxshi ko'rib qolgan ekan. Ovchilarning sinab ko'riliishi

uning qulog‘iga chalinishi bilan borib, qizlarni ogohlantirib, shunday debdi:

– Sher qiroga ovchilarning qizlar ekanligini isbot qilaman, dedilar.

Malika unga rahmat aytib, dugonalarini chaqirib: «Bor kuch-quvvatlarining ishga solib, sochilgan no‘xatlar ustidan dadil qadam bilan o‘tinglar», deb tayinlabdi.

Ertalab qirog o‘n ikki ovchini chaqirtirib, yo‘lakdagagi no‘xat ustidan yurgizibdi. Qarasa, ovchilar shaxdam qadamlar ila oyoqlari ostidagi no‘xat poyandozni pisand qilmay o‘tib ketibdilar. Birorta ham no‘xat doni yumalab ketishi u yoqda tursin, joyidan qo‘zg‘almabdi. Ovchilar ketgach, qirog sherga:

– Ko‘rdingmi, ular haqiqiy erkakday, no‘xatni bosib o‘tib ketdi. Sen meni aldabsan, – debdi. Sher esa qiroga:

– Ularni kimdir sinovdan ogohlantirib qo‘ygan, shuning uchun butun kuchlarini yig‘ib, mardona qadam tashlashdi. Keling, yana bir sinab ko‘raylik. Yo‘lakning chetiga o‘n ikkita ip yigiradigan charx qo‘yib qo‘ying. Qizlarning ko‘zi unga tushishi bilan chehrasi yorishib ketadi. Erkak kishi esa bunga e’tibor ham qilmaydi, – deb maslahat beribdi.

Qiroga bu maslahat ham ma’qul bo‘libdi. Bundan xabari bor xizmatkor ovchilarni yana ogohlantirib qo‘yibdi. Shunda malika o‘zining o‘n bir qiziga: «Hozir qirol huzuriga boramiz.

Yo'lakka sinash uchun bir necha charxlar qo'yib qo'yiladi. Aslo ularga qaray ko'rmanglar. Erkakcha salobat bilan o'tinglar», – deb tayinlabdi.

Keyingi kun ertalab qirol ovchilarni yana chaqirtiribdi. Olampanoh huzuriga ketayotib, ovchilar yo'lakda turgan charxlarga nazar ham solmabdilar. Qirol o'z sheriga yuzlanib:

– Sen meni yana aldabsan, ovchilar erkak ekan, charxlarga qayrilib ham qarashmadi, – debdi. Sher esa yana:

– Ular sinovdan yana ogoh bo'lganlar. Qizlik tuyg'ularini zo'r lab yashirib, erkaklarcha befarqlik bilan yo'lakdan o'tishgan.

Sher o'z so'zida sobit turib olsa ham qirol endi unga ishonmay qo'yibdi.

Shunday qilib, qirol qachon ovga chiqmasin o'n ikki ovchi unga doim hamroh bo'libdi. Vaqt o'tgan sayin ovchilarga yanada hurmati oshibdi. Bir kuni shikor paytida chopar kelib, qirolning qaylig'i kelayotganini xabar qilibdi. Buni eshitgan ovchilar sardori – qirolning haqiqiy qaylig'i qattiq xafa bo'lib, yuragi urishdan to'xtab qolay deb, hushidan ketibdi va otdan yiqilib tushibdi. «Sevimli ovchimga nima bo'ldi?» deb yugurib kelgan qirol malikani yerdan ko'tarib olmoqchi bo'libdi. Uning qo'lqopini yechibdi. Shunda ovchingining barmog'ida o'zi bergan uzukni ko'rib qolibdi. Ovchingining yuziga qarasa, bu o'sha – o'zining sevimli ma'shuqasi emish. Yuragi hapriqib, quvonib ketgan qirol qizdan

bo'sa olibdi. Bir payt o'ziga kelgan malika ko'zini ochibdi. Shunda qiroq qizning ko'zlariga tikilib: «Men senikiman, sen esa meniki, endi bizni dunyoda hech kim ajrata olmaydi», debdi. Yo'lga chiqqan qaylig'iga esa chopar yuborib, shu gaplarni yetkazishni buyuribdi:

– Endi sen o'z yurtingga qayt, men avvalgi haqiqiy sevgilimni topdim, kimda-kim eski kalitini topsa, unga yangisi kerak bo'lmas ekan!

Shunday qilib, ular el-yurtga katta to'y-tomosha berib, turmush qurishibdi. Barcha so'z-lari to'g'ri chiqqan sherga esa umrining oxiriga qadar qiroq himmati nasib etibdi. Ertagimiz qahramonlarining bari yana uzoq yillar baxtli-saodatli umr kechiribdilar.



Kelin ko'rdi

Ko'p zamonlar muqaddam bir cho'pon yigit yashagan ekan. U o'sib kamolga yetgach, uylanishga qaror qilibdi. Anchadan beri uch opa-singilni tanir ekan. Ular bir-biridan go'zal emish. Qaysi biriga ko'ngil berishni bilolmay boshi qotgan cho'pon onasidan maslahat so'ragan ekan, onasi unga shunday debdi:

— Qiz tanlashda shoshilma, o'g'lim. Agar o'sha uch opa-singilning biriga uylanmoqchi bo'lsang, uchovini ham mehmonga chaqirib, oldilariga pishloq qo'yib, uni qanday yeishlarini kuzatib tur.

Yigit onasining aytganini qilibdi. Shunda qizlarning to'ng'ichi pishloqning po'stini archmasdan yebdi. O'rtancha qiz pishloqning po'stini archishga archibди-yu, lekin uning yarmini po'stiga qo'shib archib tashlabdi. Kenja qiz esa shoshilmay pishloqning po'stini o'z me'yorida archib olibdi. Cho'pon uchala holatni ham onasi ga tasvirlab bergan ekan, validayi muhtaramasi unga: «Uchinchisiga uylansang, yolchiysan», deb maslahat beribdi. Shunday qilib ona nasihatiga amal qilgan yigit baxtli turmush kechirib, murod-maqsadiga yetibdi.

Mittivoylar sovg'asi

Kunlarning birida tikuvchi bilan zargar birgalashib uzoq safarga chiqishibdi. Ular kechqurun bir ajoyib vodiydan o'tishibdi. Sutdek oy nurida vodiy yanada fusunkor ko'rinishibdi. Shu payt uzoqdan yoqimli ashula eshitilibdi. Do'stlar qo'shiq sehridan zavqlanib, butun charchoqlarini unutib, yangi kuch-g'ayrat ila o'z yo'lida davom etishibdi.

Oy nurida baland qoya ko'zga tashlanibdi. Uning tepasida nimalardir qimirlayotganday bo'libdi. Do'stlar bu nima ekan deb qiziqib, yaqinroq borib qarashsa, u yerda mitti odamchalar davra qurib, ashula aytib, o'yinga tushayotgan ekanlar. O'rtada bir chol o'tirgan ekan. Bu chol ularning boshlig'i bo'lsa kerak: soqoli juda uzun va qordek oppoq emish.

Tikuvchi va zargar hayratlanib, ajoyib o'yinkulgini rosa tomosha qilishibdi. Chol imo bilan ularni o'z yoniga chaqiribdi. Zargar dadillik ila chol yoniga boribdi, tikuvchi ham uning ketidan ergashibdi. Ular salomlashib, davraga qo'shilib o'tirishibdi. Mittivoylar o'zlarining sho'x o'yinkulgilarini davom ettiraveribdilar.

Shu payt chol katta bir pichoqni olib qayray boshlabdi. Buni ko'rgan tikuvechi bilan zargarning joni chiqayozibdi. Chol pichoqni o'tkirlagach, hash-pash deguncha har ikkovining ham soch-soqolini tep-tekis qilib qirib tashlabdi. Bu ishdan so'ng chol ularga qulluq qilib, barmog'i bilan ko'mir uyilib yotgan g'aramni ko'rsatibdi. Cholning bu imosi: «Cho'ntaklaringga ko'mirdan solib olinglar» – degan ma'noni anglatar ekan.

Ikkovlari nihoyatda hayron bo'lib, cho'ntaklarini ko'mirga to'ldirishibdi. Lekin zargar ochko'zlik qilib, tikuvchiga nisbatan ko'proq olibdi, so'ngra ular qoyadan pastga tushib, vodiy bo'y lab safarini davom ettiribdilar. Bir payt qishloq ibodatxonasining qo'ng'irog'i tungi soat o'n ikkiga bong uribdi. Bu vaqtga kelib, ashula ham tinib, oy shu'lasida ko'rinyayotgan qoyada sokinlik hukm suribdi.

Ikki do'st yurib-yurib oxiri bir karvonsaroyga yetib kelishibdi. Ular poxol to'shalgan joy topib, to'nlarini yopinishibdi. Do'stlar shunday qattiq charchashgan ekanki, hatto cho'ntaklaridagi ko'mirni bo'shatishga ham ulgurmey, birpasda dong qotib uxbab qolibdilar.

Tong yorishmasdanoq ular badaniga nima-dir qattiq botganidan uyg'onib ketibdilar. Ular cho'ntaklaridagi ko'mirni olib qo'ymoqchi bo'lib qarashsa, ko'mir o'rnida tilla turgan emish. Tep-tekis qilib qirilgan soch-soqollari esa qaytadan o'sib chiqqan emish.



Shunday qilib ular boyib ketishibdi. Tikuvchining tillasi zargarnikidan oz bo'lsa ham u juda xursand emish. Lekin tikuvchinikidan ko'p tilla ham zargarning ko'ziga oz ko'rinishibdi. U tikuvchiga: «Yur, bugun kechqurun qoyaga borib, choldan yana tilla olib qaytamiz», – debdi.

Tikuvchi unamabdi. «Borging kelsa, o'zing boraver, menga shunisi ham yetadi. Bu bilan men katta ustaxona qurib olaman, hatto to'y qilib, uylanishimga ham ortadi», debdi.

Zargar esa etagiga yana qator cho'ntak tikib, kech kirishi bilanoq qoyaga qarab jo'nabdi. Bugun ham hamma narsa xuddi kechagidek bo'libdi. Mittivoylar davra qurib, ashula aytib raqsga tushishar, chol esa kechagidek davra o'rtasida o'tirar ekan.

Chol yana zargarning soch-soqolini qirib, ko'mir olishga imo qilibdi. Zargar esa xuddi shuni kutib turgandek, yugurib borib hamma cho'ntaklarini to'ldirib ko'mir olibdi. U xursand bo'lib qaytibdi. «Endi mendan badavlat odam topilmasa kerak», – degan shirin xayollar og'u shida xuddi kechagi singari to'nini yopinib yotibdi.

Zargar yarim kechagacha ham bormay, shoshilib o'rnidan turib, cho'ntagiga qo'l solibdi. U qattiq cho'chib tushibdi. Qarasa, cho'ntaklari liq to'la qora ko'mir emish.

Shunda zargar o'zini yupatib: «Kecha kel-tirgan tillalarim bor-ku», – deb yashirib qo'ygan

joyidagi tillalarni olib qarasa, kechagi tillalar o'rnida ham qora ko'mir turgan emish. U battar cho'chib, alam qilganidan peshonasiga shapillatib urgan ekan, ne ko'z bilan ko'rsinki, kallasi tap-taqir emish. Hatto yelkasidan bukur ham o'sib chiqibdi. Zargar alamidan o'kirib yig'lay boshlabdi. Bu shovqindan tikuvchi uyg'onib ketibdi.

Zargar bo'lib o'tgan voqeani unga so'zlab beribdi. Tikuvchining rahmi kelib: «Axir biz chin do'stmiz-ku. Men hamma tillalarimni sen bilan teng bo'lishaman, deya do'stini yupatibdi. Tikuvchi so'zining ustidan chiqibdi. O'sha-o'sha zargar yelkasini bukchaytirib, bosh kiyimini yechmay yuradigan bo'lib qolgan ekan.



Bo'ri bilan odam

Tulki bir kun bo'riga inson qudrati haqida gapirib beribdi, hech bir hayvon unga bas kelolmaydi. Undan faqat hiyla-nayrang bilan saqlanish mumkin.

Shunda bo'ri tulkiga debdi:

- Agar odam zotini bir ko'rsam bo'ldi edi, unga tashlangan bo'lardim.
- Bu masalada men senga yordam bera olaman, - debdi tulki. - Ertalab barvaqt turib, mening oldimga kel, senga odamlarning bittasini ko'rsataman.

Bo'ri ertalab vaqtli turib, aytilgan joyga boribdi. Tulki esa bo'rini har kuni ovchi o'tadigan yo'lga olib boribdi. Yo'ldan xizmatini o'tab bo'lsa-da, harbiy kiyimini tashlamagan qari bir askar o'tibdi.

- Odam deganing shumi? - so'rabdi bo'ri.
- Yo'q, - debdi tulki, - bu bir vaqtlar haqiqiy odam bo'lgan.

So'ngra yo'ldan bir bola mакtabga o'tib qolibdi.

- Bu odammi? - deb so'rabdi bo'ri.
- Yo'q, - debdi tulki, - bu keyinroq haqiqiy odam bo'ladi.

Nihoyat yo'lda yelkasiga qo'shog'iz miltiq osgan, beliga ov pichoq taqib olgan ovchi ko'rini bdi. Shunda tulki bo'riga aytibdi:

— Ko'ryapsanmi, ana bitta odam kelyapti, sen unga hujum qil, men bo'lsam, g'orimga borib olay, — debdi tulki.

Bo'ri odamga qarab yuguribdi.

Uni ko'rgan ovchi o'ziga o'zi «Attang, qurolimni o'qlab qo'yagan ekanman», debdi va miltig'ini olib o'qlab, bo'rining basharasiga qarab, sochma o'q uzibdi. Bo'ri chap beribdi, ammo qo'rmasdan ovchiga qarab yana yura boshlabdi. Shunda ovchi ikkinchi marta o'q uzibdi. Bo'ri og'riqdan tishlarini g'ijirlatib yana ovchiga tashlanibdi, shunda ovchi belidagi pichog'ini qinidan sug'urib olib, bo'rining chap va o'ng biqiniga bir-ikki sanchib olibdi. Bo'ri qonga belangancha uvullab tulkining yoniga arang qochib boribdi.

— Xo'sh, bo'ri aka, odam deganining ta'zirini berdingmi? — so'rabdi tulki.

— Eh, — debdi bo'ri tulkiga, — men odam degani bunchalik kuchli bo'ladi, deb o'ylamagandim. Avval odam yelkasidan tayoqni olib, unga bir puflagandi, yuzimga nimadir kelib urildi, butun tanam g'alati qitiqlanganday bo'ldi. Keyin tayoqqa yana bir bor pufladi. Bu gal burnim tagida chaqmoq chaqib, jala quyganday bo'ldi. Unga juda yaqin borganimni bilaman, badanidan

yaltiroq bir qovurg'ani sug'urib oldi-da, uni
biqinlarimga sanchib olaverdi. O'lib qolishimga
bir baxya qoldi.

– Ana, ko'rdingmi, – debdi tulki bo'rige, –
qanaqa maqtanchoq ekaningni. Chiranma g'oz,
hunaring oz, deb shunga aytadilar-da.



Dono Gretel

Otgan zamonda bir oshpaz qiz bo'lgan ekan. Uning ismi Gretel bo'lib, u doim qizil poshnali tufli kiyib yurarkan. Shu tuflisini kiyib ko'cha-ko'yga chiqqanda, kayfi chog' bo'lgancha o'ziga o'zi: «Sen baribir go'zal qizsan», deb qo'yarkan. Uyga qaytib, shodonlikdan bir qultum musallas (mast qiluvchi ichimlik) ichib olarkan, ishtahasi ochilib ketgach, o'zi pishirgan eng mazali ovqatlardan to'ygunicha yeb olarkan-u, xuddi o'zini oqlamoqchiday: «Axir oshpaz ovqatning mazasi qanaqaligini bilishi kerak-da», der ekan.

Bir kuni xonadon sohibi unga: «Gretel, bugun kechqurun mehmon keladi, ikkita tovuqni yaxshilab pishirib qo'y», deb buyuribdi.

— Xo'p bo'ladi, xo'jayin, — javob qilibdi Gretel. So'ng ikkita tovuqni so'yibdi, qaynoq suvga solib, patini yulibdi, sixga tiqib kechga yaqin o'choqdagi olovda toblay boshlabdi. Tovuqlar qizarib, pishay deb qolibdi-yu, hadeganda mehmondan darak bo'lmabdi. Shunda Gretel xo'jayiniga qarab: «Mehmon kelmasa, tovuqlarni o'choqdan olib qo'yay. Biroq ular

hil-hil pishganida issiqliqina yeyilmasa, odam tovuq go'shti yeganday bo'lmaydi», — debdi. Shunda xo'jayin qizga: «Hozir o'zim borib, mehmonni olib kelaman», — deb yugurib ketibdi. U ketgan hamon Gretel sixdag'i tovuqlarni bir chetga qo'yib, o'zicha: «O'choq oldida ancha turib qolibman shekilli, terlab chanqab ketibman. Bular qachon kelishini xudo biladi. Yerto'laga tushib, bir qultum musallas ichib kelay», debdi. U yerto'laga tushibdi, sopol ko'zani qo'liga olib: «Gretel, senga omad yor bo'lzin!» deya musallasdan sipqaribdi. Ichimlik sehriga berilgan qiz juft bo'lzin deb ko'zadan yana bir sipqaribdi. Keyin o'choq yoniga kelib, tovuqlarga yog' surtib, yana olovda pishira boshlabdi. Pishgan tovuq go'shtining yoqimli hidi qizning ishtahasini qitiqlay boshlabdi. Uning xayoliga: «Menga nimadir yetishmayapti, tovuqlardan bir tatib ko'raychi», degan o'y kelib, barmog'ini tovuq go'shtiga tekkizib yalab ko'ribdi va «Oh-oh, tovuq go'shti ham shunaqa mazali bo'ladimi-a. Endi uni yemaslik gunoh», deb yuboribdi.

Qiz xo'jayin mehmonni boshlab kelayotgan-mikan, deb derazadan tashqariga qarasa, hech kim ko'rinxabdi. Shunda yana tovuqlarning oldiga kelib: «Bitta qanoti kuyib ketibdi, yaxshisi uni yeb qo'ya qolay», debdi-da, qanotini kesib yeb olibdi. Qarasa, tovuq rosa zo'r pishgan ekan.

Keyin xayoliga: «Ikkinci qanotini ham yemasam, bitta qanot yo‘qligini xo‘jayin bilib qoladi», degan fikr kelibdi. Qiz ikkinchi qanotni ham bir zumda yeb qo‘yibdi. «Xo‘jayin kelmayaptimikan?» deb yana derazadan tashqariga mo‘ralabdi, ammo na xo‘jayinidan va na mehmondan darak yo‘q emish. Uning xayolidan: «Balki ular umuman kelishmas, balki biror boshqa joyga mehmonga ketishgandir?!» degan fikr o‘tibdi. Shunda o‘ziga o‘zi debdi: «Hoy, Gretel, bardam bo‘l, bitta tovuqni boshlab qo‘yding, musallasdan yana bir sipqargin-da, tovuqni oxirigacha yeb qo‘y, shunda qorning to‘q, g‘aming yo‘q bo‘ladi. Axir nega endi xudo bergen shunday ne’mat uvol bo‘lsin».

So‘ng yerto‘лага tushib, musallasdan ichib, tovuqni apil-tapil yeb olibdi. Baribir, xo‘jayindan darak bo‘lmabdi. Gretel ikkinchi tovuqqa mo‘ltirab qarab turib debdi: «Bunisini yolg‘iz qoldirib nima qildim. Yaxshisi, uni sherigidan ayirmay, ikkinchisining taqdiri bir bo‘la qolsin, borib musallasdan bir sipqarsam bo‘ldi». Shunday qilib u ikkinchi tovuqni ham birinchisining yoniga gumdon qilibdi.

Oshpaz qiz qornini qappaytirib o‘tirganida xo‘jayini kelib qolib debdi:

- Tez bo‘l, Gretel, mehmon hozir keladi.
- Xo‘p xo‘jayin, hozir hamma narsa tayyor bo‘ladi, – javob qilibdi Gretel.

Bu orada mezbon tovuq go'shtini bo'laklarga bo'lish uchun qo'liga kattakon pichog'ini olib qayray boshlabdi. Shu payt mehmon ham kelib qolibdi va eshikni sekin taqillatibdi. Eshikka yugurgan Gretel mehmonni ko'rib:

— Sekin, sekinroq. Tezroq bu yerdan jo'nab qoling. Xo'jayin sizni ushlab qolsa, holingiz voy bo'ladi. U sizni mehmondorchilikka chaqirgani bilan niyati yomon: ikki qulog'ingizni ham kesib olmoqchi. Pichoq charxlayotganini eshityapsizmi?

Ichkaridan pichoqning charxlanayotgani qu-log'iga chalingan mehmon yuragini hovuchlab ostonadan ortga qaytibdi-yu, o'zini ko'chaga otibdi. Gretel ham fursatni boy bermay, hay-haylagancha xo'jayinning oldiga borib:

— Ammo zo'r mehmon chaqirgan ekansizza? — debdi.

— Nima bo'ldi, Gretel? Nega unday deyapsan?

— Tovuqlarni endi olib kirayotgandim, — javob beribdi qiz, — mehmoningiz lagandan olib qochib ketdi.

— Rostdanmi? Qiziq ish bo'libdi-ku? — debdi xo'jayin tarvuzi qo'ltig'idan tushib. — Nomard, hech bo'lmasa bittasini tashlab ketmaydimi?

Shunday deya u mehmonning orqasidan chiqib:

— Hoy, shoshmang! To'xtang! — deb baqiribdi.

Mehmon qarasa, uy egasi qo'lida katta pichoq bilan yugurib kelayotgannish va hadeb:

– Faqat bittasini, bittasini olib qolaman, – dermish.

Mehmon esa «qulog‘imning bittasini kesib olib qolmoqchi», deb o‘ylab, jon-jahdi bilan yugurib, ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.



Trude xonim

O‘tgan zamonalarda bir qizcha bor ekan. U o‘zboshimcha, qaysar va mahmadona bo‘lib, ota-onasining gapiga sirayam quloq solmas ekan. Kunlarning birida u ota-onasiga qarab shunday debdi: Frau Trude degan yalmog‘iz kampir haqida juda ko‘p eshitganman, uning oldiga bir borib kelmasam bo‘lmaydi. Aytishlaricha, u ajoyib uyda yasharmish, u yerda esa g‘aroyib narsalar bisyor emish. O‘sma narsalarni judayam ko‘rgim kelayapti. Ota-onasi qizchaga u yerlarga borishni qat’iyan man etib, debdilar: «Frau Trude – yovuz niyatli ayol, u yomon ishlar qiladi, agar sen uning oldiga borsang, bizning senday qizimiz yo‘q». Ammo o‘jar qiz ota-onasining gapiga kirmay, Frau Trudening huzuriga boribdi. Qiz ayolning oldiga borishi bilan Frau Trude so‘rabdi.

- Nega buncha ranging oqarib ketgan?
- Eh, – javob qilibdi qiz a‘zoyi badani qal-tirab, – ko‘zimga ko‘ringan narsadan rosayam qo‘rqib ketdim.
- Nimani ko‘rding?
- Zinapoyangizda turgan qop-qora odamni ko‘rdim.

- U ko'mirchi.
- Yana bitta ko'm-ko'k odamni ko'rdim.
- Bunisi esa ovchi.
- Undan so'ng qip-qizil odamni ko'rdim.
- Ha, unisi qassob-ku.
- Eh, Frau Trude, qo'rqib ketyapman, de razadan qaraganimda sizni ko'rmadim-u, ammo shaytonni ko'rgandek bo'ldim.
- O-ho, - debdi ayol, - sen yalmog'iz kam-pirning haqiqiy qiyofasini ko'ribsan. Men seni anchadan buyon kutayotgan edim. Meni oldimda olov bo'lib yonib, kulbamni yoritishingni istayman. Shunday deb u ko'z ochib-yumguncha qizchani bahaybat to'nkaga aylantirib, uni olovga tashlabdi. To'nka charsillab yona boshlagach, yalmog'iz olovning oldiga o'tirib isinibdi va «Olov degan shunaqa yonsa-da!» - debdi.

Ko'rdingizmi, aziz kichkintoylar, ota-onas o'siga qulq solmagan bolalarning holiga voy!

Qorqiz

Qishning o‘rtalari... qor parchalari o‘ynab-o‘ynab yog‘ayotgan payt deraza oldida malika kiyim tikib o‘tirgan ekan. Derazaning romi qop-qora obnus daraxti yog‘ochidan yasalgan emish. Malika yog‘ayotgan oppoq qorga tikilib, bexosdan barmog‘iga igna sanchib olibdi. Shunda qorga uch tomchi qip-qizil qon tomibdi. Oppoq qorga tomgan qizillik shu qadar go‘zal rang bunyod etibdiki, malika dilidan beixtiyor: «Oh, qaniydi, o‘zi qordek oppoq, qondek qizil yonoq, sochlari romday tim qora farzand ko‘rsaydim», degan xayollarni o‘tkazibdi.

Ko‘p o‘tmay malika bir qizaloq tug‘ibdiki, u qordek oppoq, qondek qizil yonoq, sochlari esa qora ekan. Badanining oppoqligidan unga Qorqiz deb ism qo‘yishibdi. Ammo malika bola tug‘ilgan zahoti olamdan o‘tibdi.

Qirol esa tez orada boshqa xotin olibdi. Ayol go‘zal bo‘lishiga qaramay, o‘ta mag‘rur va dimog‘dor ekan. Boshqa birorta ayol go‘zallikda undan ustun bo‘lishiga chidolmas ekan. Uning ajoyib ko‘zgusi bo‘lib, malika uning qarshisida jamoliga tikilib, o‘ziga shunday savol berar ekan:

– Devordagi ko'zguginam, ko'zgujon,
Kimdir sultanatda eng go'zal jonon?

Shunda ko'zgu javob qaytararkan:

– Malikam,
Sizsiz – sultanatda eng go'zal sanam!

Shunda malika xursand bo'larkan, chunki u ko'zguning yolg'on gapirmasligini bilarkan.

Qorqiz ham bu orada o'sib-ulg'ayib, kun sayin chiroy ochib, yetti yoshida oy desa oyday, kun desa kunday go'zal qiz bo'libdi, u hatto o'gay onasidan ham go'zalroq bo'libdi. Qirolicha bir kuni o'z ko'zgusidan yana so'rabdi:

– Devordagi ko'zguginam, ko'zgujon,
Kimdir sultanatda eng go'zal jonon?

Shunda ko'zgu debdi:

– Malikam, siz eng go'zal bunda,
Ammo sizdan ming chandon go'zal,
Qorqiz ismli sanam!

Bu so'zlarni eshitgan malika qo'rqib ketibdi, hasaddan bir sarg'ayib, bir ko'karibdi. Qorqizga ko'zi tushishi bilan undan nafratlana boshlabdi. Hasad va kiborlik tuyg'usi malikaning yuragida begona o'tday kun sayin chuqurroq ildiz otib,

unga kecha-yu kunduz uyqu bermabdi. Shunda u bir ovchini oldiga chaqirib, unga: «Qizchani o'rmonga olib bor, uni ortiq ko'rishni istamayman. Sen uni o'ldirishing shart, buning isboti sifatida menga o'pka va jigarini keltirasan», debdi.

Ovchi uning aytganlarini qilib, qizchani o'rmonga eltibdi. Yonidan pichog'ini chiqarib, Qorqizning begunoh yuragiga sanchmoqchi bo'l-gan ekan, u yum-yum yig'lab, shafqat so'-rabdi:

«Jon ovchijon, menga rahming kelsin, o'ldirma! Agar o'ldirmasang, o'rmonning inson qadami yetmaydigan joylariga bosh olib ketib, aslo uyimga qaytib bormayman».

U shunchalik ma'suma ekanki, unga qarab ovchining rahmi kelibdi. Keyin: «Mayli, sho'rlik bolakay, bor, ketaqol», debdi. Keyin o'zicha: «Bechora, baribir uzoq yashamaydi, tez orada yovvoyi hayvonlarga yem bo'ladi», deb qo'yibdi. Ammo uni o'ldirmagani uchun go'yo yuragini bosib turgan tosh qulaganday yengil tortibdi, tanasiga sig'may, suyunib ketibdi. Shu payt uning oldidan yoshgina bug'u o'tib qolibdi. Ovchi uni darhol o'ldirib, o'pkasi va jigarini kesib olibdi-da, dalil sifatida malikaga eltib beribdi. Oshpaz uni tuzlab, pishirgach, yovuz o'gay ona Qorqizning o'pkasi va jigarini yeypman deb o'ylab «kabob»ni paqqos tushiribdi.

Katta o'rmonda yolg'iz qolgan bechora Qorqizning jajji yurakchasi qo'rquvdan tars yorilay

deb, har bitta daraxt yaprog'iga xavotir aralash nazar tashlar ekan. Keyin hushi biroz o'ziga kelgach, nima qilishni bilmay qirrali toshlar ustidan tikanakli butalar oralab boshi oqqan tomonga yurib ketibdi, atrofida sang'ib yurgan yovvoyi hayvonlar unga zarar yetkazishmabdi. Bechora qizaloq yugura-yugura holdan toyibdi, bu orada kech kirib, qorong'i ham tushibdi. Shunda u kichkinagina kulbani ko'rib, biroz dam olish uchun u yerga kiribdi. Kulba shu qadar ozoda ekanki, u yerdagi buyumlar benihoya chiroyli va mitti ekan. Xona o'rtasida kichkina oppoq dasturxon yozilgan stolcha bo'lib, uning ustiga yettita jajji taqsimcha va yettita qoshiqcha, yettita sanchqi va yana shuncha qadahcha qo'yilgan emish. Devor yonida yettita kichik karavotchalar qo'yilgan bo'lib, ularga qor singari oppoq choyshablar to'shalgan ekan. Chanqagan va qorni ochgan Qorqiz ovqatlangisi kelib, har bitta taqsimchadan ozginadan sabzavot, bir tishlamdan non yebdi va qadahchalardan bir tomchidan may ichibdi, chunki u faqat bir kishining ovqatini yeb qo'yishni istamabdi. Uyqusi kelib, har bitta karavotga bir martadan yotib ko'ribdi. Ammo hech birida o'zini qulay his qilmabdi – biri kattaroq, biri torroq, biri kichikroq bo'lib, unga oxirgi – yettinchi karavot ma'qul tushibdi va qizaloq u yerda uxlab qolibdi.

Tun pardasini borliqqa yoygach, kulbaning egalari – tog'da kon qaziyotgan yettita mitti

odamchalar kelishibdi. Ular yettita shamni yoqishgan ekan, uycha kunduz kundagi singari yorishib ketibdi. Shunda ular kulbada begona odam borligini sezib qolishibdi. Chunki xonadagi tartib buzilgan edi. Mitti odamchalarning birinchisi:

– Kim mening stulchamda o‘tirdi? – deb so‘rabdi.

Ikkinchi odamcha:

– Mening taqsimchamdan ovqat yegan kim?
Uchinchisi:

– Kim nonimdan tishladi?

To‘rtinchisi:

– Sabzavotlardan kim yedi?

Beshinchisi:

– Kim mening sanchqimdan foydalandi?
Oltinchisi:

– Kim pichoqchamni ishlatdi?

Yettinchisi:

– Mening qadahchamga kim tegdi? – deb so‘rabdi.

Mittivoylarning boshlig‘i g‘ijim bo‘lgan o‘ringa qarab:

– Kim mening karavotimda yotdi? – debdi.

Shunda qolganlari ham yugurib kelib, «Bizlarnikida ham kimdir yotibdi», deb tashvishga tushibdilar. Yettinchi odamcha qarasa, o‘rnida Qorqiz uqlab yotgan emish. Shunda u qolganlarni ham chaqiribdi. Odamchalar azbaroi hayratlanganlaridan qichqirib yuboribdilar.

O'sha zahoti sham keltirib, qizning yuziga tutibdilar.

— Voajab, buncha go'zal bo'lmasa bu qizaloq, — deyishibdi ular bir ovozdan va xursand bo'lishibdi, uni uyg'otgani ko'zlar qiyabdi. Yettinchi mittivoy tonggacha goh u, goh bu og'aynisining karavotida uxlab, tunni o'tkazibdi.

Tong yorishgach, uyqudan uyg'ongan Qorqiz mitti odamchalarga ko'zi tushib, qo'rqib ketibdi. Lekin ularning mehribon va marhamatli ekanliklarini ko'rib qo'rquvi bosilibdi. Odamchalar: «Isming nima?» — deb so'rashibdi. «Ismim Qorqiz», — deb javob qaytaribdi u. «Kulbamizga qanday kelib qolding?» — so'rashibdi odamchalar.

Shunda Qorqiz boshidan o'tganlarning barini: zolim o'gay onasi uni o'ldirtirmoqchi bo'lgani-yu, ammo ovchi rahmi kelib, qizchani qo'yib yuborganini, o'rmonda yugura-yugura shu kulbagaga kelib qolganini gapirib beribdi.

Mitti odamchalar:

— Uy ishlarini o'z zimmangga olishni xohlaysanmi? Ovqat pishirish, to'shaklarni qoqish, kir yuvish, tikish va to'qish, hamma yoqni tozalashga rozi bo'lsang, shu yerda qolishing mumkin. Xohlagancha yeb-ichaverasan, — deyishibdi.

Ha, jonim bilan, — debdi va shu yerda qolib, kulbani tartibga keltiribdi. Ertalab mitti odamchalar toqqa oltin qazigani ketishganda, ular

qaytguncha qizaloq ovqat tayyorlab turarkan. Kun bo‘yi yolg‘iz qolgani bois, oqko‘ngil mitti odamchalar uni ogohlantirishar va:

– O‘gay onangdan ehtiyot bo‘lgin, u hademay bu yerda ekanligingdan xabar topadi. Hech kimni uyga kiritmagin, – deb tayinlasharkan.

O‘pka va jigarni paqqos tushirgach, qizni o‘ldi deb o‘ylagan o‘gay ona, endi o‘zining tengsiz go‘zal ekanligiga hech shubhalanmay ko‘zguning oldiga borib, undan so‘rabdi:

– *Devordagi ko‘zguginam, ko‘zgujon,
Kmdir sultanatda eng go‘zal jonon?*

Shunda ko‘zgu javob qaytaribdi:

– *Siz go‘zalsiz bunda malikam,
Lekin Qorqiz – ma’suma sanam.
Mittilar-la yasharkan inoq,
U sizdan ming chandon go‘zalroq!*

Ko‘zguning yolg‘on gapirmasligini bilgan malika ovchining aldagani anglab, Qorqizning tirikligi haqidagi xabardan qo‘rqib ketibdi. U yana o‘tirib xayolga cho‘mibdi. Qorqizni o‘ldirish yo‘llarini qidira boshlabdi. O‘zining esa go‘zallar go‘zali emasligidan hasadi kelib, yurakbag‘ri kuyib ketibdi.

Nihoyat, o‘ylay-o‘ylay bir yo‘lini topgandek bo‘libdi. Yuzlariga turli bo‘yoqlarni surtib, tanib bo‘lmas bir qari bozorchi kampir qiyofasiga

kiribdi-da, yo'lga tushibdi. Yettita tog'dan oshib, yetti odamcha makoniga kelib, eshik qoqibdi.

— Asl mollar sotaman! Asl mollar sotaman!

Shunda Qorqiz derazadan qarab, undan so'rabdi:

— Assalomu alaykum, onajon, nima sotyapsiz?

— Asl mollar, — javob qaytaribdi u, — har xil bog'ichlar.

— Shunday deb rang-barang ipakdan eshilgan bog'ichni qizga ko'rsatibdi. «Bu muhtarama ayolni uyga kirgizsam bo'ladi», — o'ylabdi Qorqiz. So'ngra eshik tambasini surib, o'ziga chiroyli ipak bog'ich sotib olibdi.

— «Qizalog'im, biram ko'rkmamsanki! Kel, bu belbog'larni belingga o'zim yaxshilab bog'lab qo'yay», — debdi kampir.

Oqko'ngil Qorqiz bu taklifdan hech qanday yomonlik kutmay, rozi bo'libdi. Shunda kampir belbog'ni shunchalik tez va qattiq bog'labdiki, natijada, Qorqizning nafasi qisilib, hushidan ketib, yerga o'likday qulab tushibdi.

«Ana endi yolgiz o'zim go'zallikda teng-sizman», — deya o'gay ona o'sha zahoti ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Ko'p o'tmay kech kirib, uyga qaytgan yettita mitti odamchalar o'zлari uchun jondan aziz bo'lган Qorqizning yerda qimirlamay yotganini ko'rib, hushlari boshidan uchibdi. Ular qizni yerdan ko'tarib qarashsa, belbog' bilan qattiq qisib bog'langan emish. Darhol belbog'ini ke-

sishgan ekan, u nafas olayotganday bo'libdi va asta-sekin hushiga kelibdi.

Odamchalar bo'lган voqeани eshitib, shunday qarorga kelibdilar.

— Qari bozorchi aslida ayyor malika. Bundan buyog'iga ehtiyot bo'l, biz uyda yo'qligimizda hech kimni uyga kiritma!

Yovuz malika uyga qaytgach, darhol sehrli ko'zguning oldiga borib, uni so'roqqa tutibdi:

— *Devordagi ko'zguginam, ko'zgujon,
Kimdir sultanatda eng go'zal jonon?*

Sehrli ko'zgu esa malikaga avvalgi javobini qaytaribdi:

— *Siz go'zalsiz bunda, malikam,
Lekin Qorqiz – ma'suma sanam.
Mittilar-la yasharkan inoq,
U sizdan ming chandon go'zalroq!*

Buni eshitgan malikaning yuragi tutaqib ketganidan yorilib ketay debdi. U Qorqizning tirik qolganini tushunib yetibdi.

— Bu safar, albatta, o'ldirmasdan qo'ymayman, — debdi o'ziga o'zi. — Shunday yo'l o'ylab topayki, joning qanday qilib chiqib ketganini sezmay qolgin.

Malikaning jodugarlikdan ham xabari bor ekan, u bir afsun o'qib, zaharli taroq yasabdi. Kiyim-

kechaklarini o'zgartirib, munkillagan kampir qiyofasida yana mitti odamchalar makoniga qarab yo'l olibdi. Yettita tog'dan oshib, yetti odamcha yashaydigan uyga kelib, eshikni taqillatibdi:

— Asl mollar sotaman! Olib qoling!

Qorqiz derazadan boshini chiqarib:

— Uyga hech kimni kiritmayman, yo'lingizdan qolmang, — debdi.

— Juda bo'imasa, ko'rish mumkindir axir, — debdi kampir. — So'ngra taroqni chiqarib, uni baland ko'tarib, Qorqizga ko'rsatibdi.

Taroq qizga shu qadar ma'qul bo'libdiki, u xavfni unutib, eshikni ochibdi va kampirni ichkariga kirgizibdi. Ular taroqning narxini kelishib olishgach, kampir qizga:

— Kel endi, sochlaringni chiroyli qilib tarab qo'yay, — debdi.

Bechora qiz yana hech narsani xayoliga kel-tirmay, rozi bo'libdi. Taroq sochlariiga tegartegmas, zahar o'z kuchini ko'rsatibdi. Qiz yerga hushsiz yiqlibdi.

— Go'zallar go'zali, — debdi yovuz malika, — mana nihoyat kuning ham bitdi! — Shunday deb, u o'sha zahoti ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Ammo qizning baxtiga tezda kech kirib, mitti odamchalar kelib qolishibdi. Qorqizning yerda jonsiz yotganini ko'rgach, ular bu ish faqat qizning o'gay onasining qo'lidan kelishini darhol gumon qilishibdi, izlay-izlay nihoyat zaharli taroqni topishibdi. Ular taroqni sug'urib

olishlari bilan qiz hushiga kelib, bo'lgan voqeani aytib beribdi. Mitti odamchalar unga ehtiyot bo'lishni, eshikni zinhor-bazinhor hech kimga ochmaslikni takror-takror tayinlabdilar.

Qirolicha uyga qaytib, yana ko'zgu qarshisiga o'tirib so'rabdi:

— *Devordagi ko'zguginam, ko'zgujon,
Kimir saltanatda eng go'zal jonon?*

Shunda ko'zgu har doimgiday javob qilibdi:

— *Siz go'zalsiz bunda, malikam,
Lekin Qorqiz – ma'suma sanam.
Mittilar-la yasharkan inoq,
U sizdan ming chandon go'zalroq!*

Bunday javobdan yovuz malikaning g'azabi miyasiga sig'may ketibdi. U:

«Qorqiz o'lishi kerak, o'lsam o'lamanki, uni tirik qo'ymayman», deb baqiribdi. So'ngra hech kim qadam bosmaydigan sirli xonasiga kirib, zaharli olma tayyorlabdi. Olma shunchalik chirroyli ekanki, ko'rgan odam beixtiyor undan tatib ko'rgisi kelarkan, ammo bir tishlasa, bas, o'sha zahoti til tortmay o'larkan. Olma tayyor bo'lgach, malika yuziga turli bo'yoqlar surib, dehqon ayol kiyimida yetti tog'dan oshib, yana yettila mitti odamcha makoniga qarab yo'lga tushibdi, yetib borib, eshikni taqillatibdi. Qorqiz derazadan boshini chiqarib shunday debdi:

- Uyga hech kimni kirgizmaslik kerakligini mitti odamchalar qattiq tayinlab ketgan.
- To‘g‘ri, – debdi dehqon ayol, – lekin men qo‘limdagi olmalarni sotishim kerak. Mana, ol, bittasini senga sovg‘a qilishim mumkin.
- Yo‘q, – debdi Qorqiz, – biror narsa xarid qilish ham menga man etilgan.
- Hali, sen zaharlanib qolaman deb qo‘r-qayapsanmi? Qara, olmani ikkiga bo‘lib yarmini o‘zim yeyman: oq tomonini men yeyman, qizil tomonini sen yeysan.

Olmaning aynan qizil tomoni zaharlangan ekan. Qiz ayolning olmani yeyayotganini ko‘rib, o‘zini to‘xtatolmabdi, derazadan qo‘lini uzatib uning yarmini – qizil bo‘lagini olibdi. Undan bir tishlabdi-yu, o‘scha zahoti yerga jonsiz yiqilibdi. O‘gay ona qizga o‘zining yovuz ko‘zlar bilan tikilib, qah-qah otib kulibdi va shunday debdi:

- Ey, qordek oq, qondek qizil yonoq, sochlari qora qo‘ng‘iroq bo‘lgan go‘zal! Mitti odamchalaring ming urinishmasin, bu safar seni uyqudan uyg‘ota olmaydi.

Keyin uyga qaytib, sehrli ko‘zguni so‘roqqa tutibdi:

- *Devordagi ko‘zguginam, ko‘zgujon,
Kimdir sultanatda eng go‘zal jonon?*

Ko‘zgu nihoyat u kutgan javobni aytibdi:

- *Malikam,
Sizsiz sultanatda eng go‘zal sanam!*

Yovuz malikaning hasaddan yongan yuragi bu javobni eshitgach, taskin topibdi.

Mitti odamchalar uyga qaytishsa, Qorqiz jonsiz holda yotgan emish. Ular zaharni qizning sochidan, belbog‘idan izlab ko‘ribdi. Suv va may bilan yuvib ko‘rishihibdi. Lekin hech nima yordam bermabdi. Qiz tirilmabdi.

Qizni tobutga solib, uning atrofida uch kunitimisiz yig‘lashibdi. Biroq uni dafn etishga ko‘zları qiymabdi. Qorqiz xuddi tirikdek, yonoqlari qip-qizil emish. Shunda mitti odamchalar:

– Bunday go‘zal yerga uvol, – deyishibdi. Keyin shisha tobut yasab, shoh qizi ekanligini oltin harflar bilan yozib qo‘yibdilar. So‘ngra uni toqqa eltib, har biri bir kundan qo‘riqlashga qaror qilishibdi. Go‘zal qizning qismatiga parrandalar ham ko‘zyosh to‘kibdi: avval boyqush, keyin qarg‘a, eng so‘ngida kabutar.

– Shisha tobutda o‘zi qordek oq, qondek qizil yonoq, sochlari qora qo‘ng‘iroq Qorqiz uzoq yotibdi:

Ammo kunlarning birida bir shahzoda o‘rmondan o‘tib ketayotib, mitti odamchalarning uyiga duch kelib qolibdi, tog‘dagi shisha tobut va uning ichida yotgan Qorqizni ko‘rib qolibdi. Shunda u mitti odamchalarga qarab:

– Shisha tobutni menga bersangizlar, sizlarga xohlagan narsangizni muhayyo qilaman, – debdi.

Odamchalar shunday javob qilishibdi:

– Butun dunyo oltinlarini yig‘ishtirib kelsangiz ham uni berolmaymiz.

Shunda shahzoda:

– Unda menga tobutni sovg‘a qilinglar, – debdi. Men uni o‘z sevgilimni e’zozlagandek as-rayman.

Yigitning so‘zlarini eshitgan mitti odamchalar unga achinishibdi va tobutni unga hadya qilihibdi. Xizmatkorlar uni yelkasida ko‘tarib olibdi. Yo‘lda ketayotib, ular butaga qoqilib ketishibdi. Shisha tobut silkinib, Qorqizning tomog‘iga tiqilib qolgan zaharli olma parchasi otilib chiqib ketibdi. Shunda u ko‘zlarini ochib, tobutning qopqog‘ini ko‘tarib, o‘rnidan turibdi.

– Voy, qayerdaman o‘zi? – so‘rabdi u.

– Men bilan birgasan, – debdi quvonib ketgan shahzoda va bo‘lib o‘tgan voqealarni aytib beribdi. – Sen men uchun dunyodagi eng aziz insonsan, endi men bilan otamning qasriga boramiz, mening qaylig‘im bo‘lgin, o‘sha yerda to‘y-tomosha qilib senga uylanaman.

Qorqiz rozi bo‘libdi va ular birgalikda yo‘lga tushishibdi. Shoh saroyida katta to‘y boshlanib ketibdi. To‘yga Qorqizning o‘gay onasi ham taklif qilingan ekan. U eng chiroyli liboslarini kiyib, ko‘zgu oldiga o‘tiribdi:

– *Devordagi ko‘zguginam, ko‘zgujon
Kimdir sultanatda eng go‘zal jonon?*

Ko'zgu shunday javob qaytaribdi:

— *Siz go'zalsiz bunda malikam,
Lekin Qorqiz — ma'suma sanam.
Shahzoda-la turmush qurgan choq,
Bo'ldi sizdan ming bor go'zalroq!*

Yovuz o'gay ona bu so'zlarni eshitib, cho'chib ketganidan nima qilishini bilmay qolibdi. Avval to'yga bormaslikka qaror qilibdi, keyin o'zini qo'yarga joy topolmay yosh malikani ko'rgani saroya yo'l olibdi. U qasrga kiribdi-yu, go'zal Qorqizni tanib, dahshat va qo'rquvdan turgan joyida qotib qolibdi.

Biroq saroyda ko'mir olovida temir kalishlar qizitilayotgan ekan, qisqichlar yordamida ularni olib kelishibdi va yovuz malikaning oldiga qo'yishibdi. Uni laxcha cho'g' bo'lib qizigan kalishlarni kiyishga va to joni chiqquniga qadar o'yinga tushishga majbur qilishibdi.



Bremenlik mashshoqlar

Qadim zamonda bir odamning eshagi bor ekan. Eshak ko'p yillardan buyon qop-qop yuklarni tegirmonga tashir ekan. Vaqt o'tib, eshak qarib, holdan toyib, ishga yaroqsiz bo'la boshlabdi. Shuning uchun ham egasi unga yem bermay qo'yibdi. Eshak buning oxiri yaxshi bo'lmasligini sezib, xo'jayinning uyidan qochib, Bremenga qarab jo'nabdi. Uning niyati shaharda mashshoq bo'lish ekan. Eshak yurib-yurib bir ovchi itga duch kelibdi. It yugu-raverib holdan toyganidan zo'rg'a nafas olib, bir chekkada yalpayib yotgan ekan.

— Senga nima bo'ldi, namuncha hansirama-sang, olg'ir? — so'rabdi eshak undan.

— Ey, qarib qoldim, kun sayin quvvatim kamayib borayapti, ovda ham uzoqqa yugurolmay qoldim. Egam meni urib o'ldirmoqchi bo'lgandi, qochib qoldim! Endi bir tishlam nonni qanday topaman?

— Bilasanmi, og'ayni, debdi eshak. — Men Bremenga ketayapman, shaharda mashshoqlik qilaman. Sen men bilan yur, birga musiqa

chalamiz. Men ud chalaman, sen esa nog'ora. It xursand bo'libdi. Ikkovlashib yo'lga chiqishibdi.

Ular ancha yurganlaridan so'ng, bir mushukni uchratib qolishibdi. U juda ma'yus ekan, qo-vog'idan qor yog'arkan.

– Xo'sh, kim arpangni xom o'rdi, qariya baroqvoy? – so'rabdi eshak.

– Joni halqumiga kelib tursa, kim ham xursand bo'lardi?! – javob qilibdi mushuk. – Men qaridim. Tishlarim ham o'tmaslashib qoldi, endi menga sichqon quvlashdan ko'ra o'choqni orqasida o'tirib mizg'ish ko'proq yoqadi. Shuning uchun kampirim meni suvgaga cho'ktirmoqchi bo'luvdi, zo'rg'a qochib qutuldim-u, bu yog'iga qayga borarimni bilmayman.

– Biz bilan birga Bremenga yur! Kechasi miyovlab musiqa chalish qo'lingdan keladi-ku. Sen ham u yerda mashshoqlik qilasan. Mushukka bu gap ma'qul kelibdi.

Alqissa, mushuk ular bilan birga yo'lga tushibdi. Uch vatangado yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, oxiri bir dehqon hovlisi yonidan o'tishibdi. Shu payt bir katta xo'roz baland darvozaning tepasida turib, bor kuchi bilan hadeb qichqiraveribdi.

– Nega bunchalik faryod qilasan, qulqoni qoqib qo'limizga berasan-ku bunaqada? Nima qilmoqchisan? – so'rabdi eshak hayron bo'lib.

– Ob-havo yaxshi kelishini bashorat qilayapman. Ertaga dam olish kuni, – tushuntira bosh-

labdi xo'roz, bekamnikiga mehmonlar keladi, berahm bekam meni so'yib, ularga sho'rva pishirib bermoqchi. Bugun kechqurun oshpaz kelib, mening kallamni olishi kerak. Shuning uchun mening bor kuchim bilan qichqirishdan boshqa ilojim qolmadи.

— E, qo'ysang-chi bu gaplarni, qizilbosh! — debdi eshak, — yaxshisi, biz bilan ketaqol. Biz Bremenga borayapmiz. O'limdan boshqa hamma narsa har yerda topiladi. Sening yoqimli ovozing bor, birgalashib musiqa chalsak, zo'r bo'ladi-da. Xo'rozga taklif ma'qul bo'libdi. Endi ular to'rtovlon bo'lib yo'lga tushibdilar.

To'rtovlari yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham, mo'l yurishibdi. Bremen shahrigacha bir kunlik yo'l qolibdi. Kechga yaqin ular bir o'rmonga yetib kelishibdi va shu yerda tunamoqchi bo'lib, har biri o'ziga qulay joy izlab topishibdi. Eshak bilan it daraxt tagiga, mushuk va xo'roz daraxt shoxlariga chiqibdi. Xo'roz daraxtning eng tepasiga chiqib olibdi, bu yer har qanday xavf-xatardan uzoq ekan-da. Xo'roz uqlashdan oldin bir chor atrofga qarab olibdi. Shunda u uzoqdagi uchqunni ko'rib, xursandligidan hamrohlariga olisdan miltillab yonayotgan chiroq ko'rinyotgani, hoynahoy u yerda biror uy borligini aytibdi. Buni eshitgan eshak darrov o'rnidan turib: «Yuringlar, o'sha uyga boramiz, bu yerda tunashimiz juda mushkulga o'xshaydi», — deb hangrabdi. It esa o'sha yerda uch-to'rt

suyak va biroz go'sht topilsa, yaxshi bo'lardi, deb umid qilibdi.

Shunday qilib ular chiroq yongan tomonga yurishibdi, chiroq esa yanada ravshanroq nur socha boshlabdi, oldilaridan eski, ammo yorug' qaroqchilar qarorgohi chiqibdi. Eng kattalari bo'lgan eshak deraza yoniga kelib ichkariga qarabdi. «Nimalarni ko'ryapsan, oqsoch?» – so'rabdi xo'roz. «Nimani ko'rayapman? Ichkarida turlituman mazali taomlar va yoqimli ichimliklar to'la dasturxon ko'rinyapti. Qaroqchilar maza qilib ovqatlanib o'tirishibdi». «Bizga ham shu kerak edi, ayni muddao-ku», debdi xo'roz. «Ha, ha, oh qani endi o'sha joyda bo'lsaydik», debdi eshak ham. Shunda hayvonlar qaroqchilarni uydan haydab chiqarish uchun nima qilish kerakligini o'ylay boshlashibdi. Nihoyat, ular bir hiyla o'ylab topishibdi. Eshak oldingi oyoqlarini derazaga qo'yibdi, it eshakning yelkasiga sakrab minib olibdi. Mushuk esa itning ustiga chiqibdi. Xo'roz mushukning boshiga qo'nib olibdi. Shu zaylda eshakning ishorasi bilan to'rtovi bir ovozdan ajoyib musiqa boshlashibdi: eshak hangrabdi, it vovillabdi, mushuk miyovlabdi, xo'roz ovozi boricha qichqira boshlabdi. Shundan so'ng ular baravariga ichkariga sakrabdilar, shishalar sinibdi, qaroqchilar qo'qqisdan bo'lgan bu hangoma va baqir-chaqirdan vahimaga tushib, qandaydir sharpa kirib kelganday qo'rqqanlari-

dan dir-dir titrab, jonlarini hovuchlab, o'rmon-ga qarab qochib qolibdilar.

To'rtovlon mashshoqlar bo'lsa, dasturxonga bamaylixotir o'tirib, xuddi ovqat ko'rmaganday qolgan-qutgan yeguliklarni maza qilib paqqos tushirishibdi. So'ngra mashshoqlar o'zlariga uplash uchun joy qidiribdilar: eshak hovlidagi so'ri ustiga yotibdi, it eshik orqasiga joylashibdi. Mushuk pechkaning tepasini egallab sovimag'an kulning issig'ida uxbabdi, xo'roz esa uzun bir xodaning tepasiga chiqib olibdi. Ko'p yurib charchagan sheriklarning bari birpasda dong qotib uxbabdilar.

Vaqt yarim tundan o'tganda, qaroqchilar uzoqdan qarashsa, uyda chiroq o'chgan, hamma yoq suv sepganday jimjit emish. O'g'riboshi «Bekorga qochib ketibmiz» deb o'ylagancha, bitta qaroqchini yaxshiroq xabar olib kelish uchun qarorgohga jo'natibdi.

U qaroqchi borsa, hamma yoq jimjit. U avval oshxonaga kirgan ekan, u yerda yotgan mushukning ko'zлari unga cho'g' bo'lib ko'rinibdi, shunda chiroq yoqish niyatida o'sha cho'g'ga gugurt cho'pini tutgan ekan, mushuk uyg'onib ketibdi, jon-jahdi bilan qaroqchining yuziga tashlanib, tirnoqlari bilan uning yuz-ko'zlarini timdalab tashlabdi. Qo'rqib ketgan qaroqchi jonini hovuchlaganicha, eshik tomon yuguribdi. Shu payt eshik orqasida yotgan it uyg'onib, qaroqchining oyog'ini tishlab olibdi. Itdan zo'rg'a

qutulib hovliga qarab qochgan ham ekanki, u yerda yotgan eshak uyg'onib, orqa oyog'i bilan qaroqchini boplab tepibdi. Bu shovqin-surondan uyg'onib ketgan xo'roz ham to'sin ustida turib, ovozi boricha qichqira boshlabdi. Shunda qaroqchi jon-jahdi bilan qochib, voqeani o'g'riboshiga aytib beribdi:

— Evoh, bu uyda bir alvasti poylab o'tiribdi. U basharamni uzun tirnoqli panjalari bilan yulib tashladi. Eshik oldida o'tkir pichog'i bor bir odam turgan ekan, oyog'imga pichog'ini sanchib oldi. Hovlida esa bahaybat bir maxluq yotgan ekan, u qo'lidagi katta to'qmog'i bilan menga tashlandi. Tomda o'tirib olgan qozi esa hadeb: «O'g'rini menga keltir!» deb baqiryapti. Imkon borida qochib qoldim.

Shundan buyon bu uyga qaytib kelishga qaroqchilarning yuragi dov bermabdi. Biroq to'rtovlon bremenlik mashshoqlarga yangi uy shunchalar yoqib qolibdiki, bu yerdan ketishni xayoliga ham keltirishmas emish.

Mundarija

So'zboshi.....	3
Olti oqqush.....	6
Oq ilon	16
Topishmoq.....	25
Shirin bo'tqa	32
Bobo va nevara	34
Asalarilar qirolichasi	36
Vafodor it	41
Kuylovchi suyak	45
O'n ikki ovchi.....	49
Kelin ko'rdi.....	56
Mittivoylar sovg'asi.....	57
Bo'ri bilan odam	62
Dono Gretel	65
Trude xonim.....	70
Qorqiz.....	72
Bremenlik mashshoqlar	87

Adabiy-badiiy nashr

AKA-UKA GRIMM ERTAKLARI

MITTIVOYLAR SOVG'ASI

Olmon xalq ertaklari

1-kitob

Ikkinchchi nashri

Tarjimonlar: *X. Rahimov, G. Rahimova*

Muharrirlar: *B. Akbarov, M. Nurmetova*

Rassom-dizayner *U. Sulaymonov*

Texnik muharrirler: *T. Xaritonova, L. Xijova*

Kichik muharrir *M. Yakubjanova*

Musahhih *N. Abdurahmonova*

Kompyuterda sahifalovchi *K. Goldobina*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158. 14.08.2009.
Bosishga 2018-yil 4-oktabrda ruxsat etildi.
Bichimi 60×84¹/₄. Ofset qog'oz. «SchoolBookC» garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi. Shertli bosma tabog'i 11,16.
Naahr tabog'i 4,48. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 18-481.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi,
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd.uzbekistan.uz

Grimm

G-84 Mittivoylar sovg'asi: ertaklar / Aka-uka Grimm. Ikkinchি nashri.
— Toshkent: «O'zbekiston», 2018. 96 b.
ISBN 978-9943-28-286-5

Ushbu kitobda aka-uka Grimmlarning saralangan ertaklari jamlangan. Ularni Grimmlar xalq og'zidan yozib olib, olmon adabiy tili normalariga moslashtirgach, dastlab 1812-yilda chop ettirishgan. Bugungi kunga qadar mazkur ertaklar 190 ga yaqin dunyo tillariga tarjima qilingan. Ularda olmon xalqining orzu-umidlari, orzularga yetishish yo'lida uchraydigan mashhaqqatlar va ularni yengish yo'llari, adolat uchun kurash, do'stlik, Vatanga muhabbat, ahdga sadoqat kabi mavzular turli obrazlarda ifoda etilgan.

UO'K: 398.21(430)
KBK 84(4Nem)

Aka-uka
Grimm ertaklari

Mittivoylar sovg'asi



«O'ZBEKİSTON»

ISBN 978-9949-26-286-6

